

## Majburiy mehnatmi yoki mehnat tarbiyasi?

### Nishonni to'g'ri oling, blogger!

Tarmoqlardagi "majburiy mehnat" tamgasi qo'yilgan ayblovlarni kuzatar ekansiz, hammasi bir-biriga yaqin: ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va tozalash ishlari...

3-bet

## Ulug'bek qo'ygan narvondan biz emas, boshqalar chiqdi

Yerning tortishish kuchini yengib kosmosga chiqish uchun sekundiga 7,9 kilometr birinchi kosmik tezlik talab qilinadi.

4-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

# Marifat

1931-yildan chiqq boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 26-may, chorshanba № 21 (9346)

Xalq ziyolilari gazetasi

**BILIM**

AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI

**bino bo'lishdan binosizlikkacha**



➔ "BILIM" AKM TASHKIL ETILGANIDAN BERI UNGA ALOHIDA BINO AJRATILMAGAN;

➔ HOZIR CHILONZORDA MOSLASHTIRILGAN BINODA JOYLASHGAN;

➔ 2017-YIL 13-SENTABRDAGI PREZIDENT QARORIGA KO'RA KUTUBXONAGA YANGI BINO AJRATILISHI KERAK EDI. QAROR IJROSI HAMON TA'MINLANMAGAN...

5-bet

Bizni internetda ham kuzating! [www.marifat.uz](http://www.marifat.uz) [/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz) [@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)



4-bet

O'qituvchi nimanin o'ylaydi?



Shu kunlarda bir narsa kishini juda xafa qilyapti: o'qituvchining mavqeyini oddiy xalq, boshqa sohada tashkilotlar emas, balki o'qituvchi va o'qituvchilikdan biroz yuqorilashganlar tushirishga harakat qilyapti. Bu xalq orasida salbiy xulosalarga sabab bo'lmoqda. "O'zingdan chiqqan baloga, qayga borasan davoga" degani shu bo'lsa kerakda? Bir tomonlama ishlash yaxshi emas. Agar judayam xatolik, kamchilik izlash kerak bo'lsa, masalaga chuqurroq yondashish kerak!

Nega...? Savollar ko'p va javoblari ham tayin!

**Dildor NURMUHAMMEDOVA**

Ustozlar, sizlar tomonida qanday bilimadim-u, bizda judayam achinarli, kulgili holatlar kuzatilyapti. Maktab direktorlari tuman kengashi deputatlari tomonidan tayinlanyapti. Qaniydi, o'sha deputatlar maktablarning haqiqiy hayotini tushunsa, qaniydi ularda maktablar borasida yetarli bilim bo'lsa! Bu ham mayli-yu, otasi tengi odamlarga, nomzodlarga berayotgan savollarini eshitsangiz...

Savol tug'iladi, nega maktab direktorini tayinlashda VXTB hamda kuzatuv kengashi fikri inobatga olinmaydi? Bu o'qituvchilar va maktab ustidan ochiqdan ochiq kulish emasmi? Qani, ayting-chi, tuman kengashlari shunaqa layoqat va salohiyatga ega deputatlardan tashkil topganmi?

**Botirjon KARIMOV**

Hozirgina Al-Xorazmiy maktabi haqida eshitib qoldim va u yerdagi tizim menga yoqdi. Har oyda o'quvchilar imtihon qilinib, bilim darajasiga qarab ajratilar ekan. 0,1 dan 10 gacha. Imtihondan o'ta olmasa past darajadagi sinfga tushirib yuborilar ekan. Hamma maktablarga shu tizimni kiritish kerak deb o'ylab qoldim. Shunda ota-onalar ham farzandining o'qishiga e'tiborliroq bo'larmidi...

**Dilfuza JAMOLIDDINOVA**

Munosabat

# Maktabni bitirmay talaba bo'ldim!

Bugun jonajon maktabimizda so'nggi qo'ng'iroq jarangladi. Ta'lim bergan ustozlarimiz, bag'rida unib-o'stirgan ilm maskanimiz bilan xayrlashish og'ir, lekin baribir qalbmida shijoat, ustozlarim mehnatini tezroq oqlash, munosib bo'lish orzusi jo'sh urmoqda.

Ayniqsa, kecha mamlakatimiz Prezidentining maktab bitiruvchilariga yo'llagan tabrigi bizlarga yanada baland parvoz, qo'sh qanotlar bag'ishlagandek bo'ldi. Omadli ekanman. Yurtimiz tarixida birinchi marta davlat rahbarining maktab bitiruvchilariga bildirgan izhori biz bitirayotgan paytga to'g'ri keldi.

Men maktabni bitirmasdan oq talaba bo'ldim. AKFA universiteti imtihonlarida yaxshi natijalar ko'rsatdim. Kelajakda jarroh bo'lmoqchiman. Shu maqsadga erishish yo'lida ota-onam va ustozlarim na-

zoratida aniq va tabiiy fanlar yo'nalishida puxta bilim egallashga, qo'shimcha ravishda ingliz tilini mukammal o'rganishga harakat qildim. Mehnatlarim besamar ketmadi. Kimyo, biologiya va matematika fanlaridan muvaffaqiyatli natija ko'rsatib, 237 ball bilan o'qishga qabul qilindim. Ingliz tilidan ham IELTS darajasiga egaman. Bu ko'rsatkichlarga erishishda ota-onam, ustozlarimning hissasi ulkan. Qolaversa, bunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlarning ham. Negaki, maktabimizda tashkil qilingan variativ sin-

fda biz ikki yil davomida ko'p bilimlarni egalladik. O'zimiz tanlagan yo'nalishdagi fanlar haftasiga 8-11 soatdan o'tildi. Malakali o'qituvchilarimiz DTM testlari asosida qayta-qayta bilimlarimizni tekshirib, xatolarimiz ustida ishlashdi. Bugun variativ sinfda tahsil olgan 31 nafar o'quvchining hammasi oliy ta'lim muassasalariga imtihonlariga tayyor deb o'ylayman. Qolgan omadga bog'liq.

Prezidentimiz o'z tabrigida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor haqida to'xtalibdilar. Jumladan, zamo-

naviy Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanlari barpo etilgani, keyingi yillarda esa fizika va chet tillarga ixtisoslashtirilgan maktab ochishga alohida e'tibor qaratilishini aytibdi. Shu yil sentabr oyida 14 ta fizika va 207 ta chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktab faoliyatini boshlashini eshitib juda ham xursand bo'ldim. Negaki, o'quvchilar o'zi qiziqqan fanga ixtisoslashib o'qisa, yaxshi samara berishini ikki yil variativ sinfda tahsil olib tushundik.

Ta'limga bildirilayotgan bunday e'tibor o'z samarasini beradi. Tabrik nutqida ham Prezidentimiz bu haqda alohida to'xtalib o'tdi. Oxirgi bir yarim yilda iqtidorli o'quvchilarimiz xalqaro olimpiadalarda 4 ta oltin, 18 ta kumush, 30 ta bron-

za medalini qo'lga kiritgani yaratilayotgan sharoitlarning isbotidir.

Prezidentimizning bitiruvchi o'quvchilarga murojaatini tinglar ekanman biz yoshlarga bildirilayotgan bunday g'amxo'rlikka munosib bo'lish uchun yanada ko'proq o'qishga, izlanishga va shu yo'l bilan ishonchni oqlashga o'z-o'zimga so'z berdim. Zero, yurtboshimiz o'z tabrigi orqali yoshlarga murojaat qilib "hech qachon unutmang, sizlar inson har tomonlama erkin, ozod va farovon yashaydigan yangi O'zbekiston, yangi Renessans bunyodkorlarisiz" deb bejiz aytmadi.

Dildora BAHODIROVA,  
Olmazor tumanidagi  
28-maktabning 11-sinf  
o'quvchisi

"Xayr, maktabim...", "So'nggi qo'ng'iroq"... Erta tongdan yangragan bu taronalalar, jarangdor qo'ng'iroq sadosi o'quvchi-yu o'qituvchilarni yanada hayajonga soldi. Bugun yurtimiz umumta'lim maktablaridagi 438 ming nafar bitiruvchining qalbi mana shunday his-hayajonga to'ldi. Ayniqsa, o'quvchilarning dil izhorlari va chiqishlarida namoyon bo'lgan cheksiz hurmat-u minnatdorchiilik barchamizning ko'nglimizga iliqlik tuhfa etdi.

## Qalblarni hayajonga to'ldirgan kun

Bu yil maktabimizni 130 nafar o'g'il-qiz tamomlab, ta'limning keyingi bosqichiga yo'l olishmoqda. Jumladan, sinf rahbarligimdagi 11-"G" sinfining 33 nafar o'quvchisi ham katta hayot sari qadam tashlayapti. Ular orasida iqtidorli o'quvchilar talaygina. Ushbu o'quv yilining o'zida ko'pgina yoshlar xalqaro universitetlarga onlayn imtihonlardan o'tib, o'z salohiyatini sinab ko'rishdi. Quvonarlisi, o'quvchilarim — A.Fayzullayev, A.Zokirov, L.Valiulina, S.Toyirovlar allaqachon talaba bo'lib ulgurishdi. Ko'pgina a'lochilari o'g'il-qizlar shu vaqtgacha Prezident maktabi va boshqa nufuzli maktablar, akademik litseylarga o'qishga kirishgani ham bizning faxrimiz.

Pandemiya davri barchamiz uchun sinovli davr bo'ldi. Shunga qaramay, o'quvchilar tinmay bilim olishga harakat qilishdi. Bu yilgi "So'nggi qo'ng'iroq" tabdiri arafasida Prezidentimizning yoshlarga yo'llagan bayram tabrigi xushkayfiyat ulashdi. Darhaqiqat, o'tgan davrda o'qituvchilar, ustoz-murabbiylarning mashraqqatli mehnatini munosib rag'batlantirish, ularning ish va turmush sharoitini yaxshilash, jamiyatdagi obro'sini oshirishga katta e'tibor qaratildi. Bugungi kunda butun yurtimizni qamrab olgan besh muhim tashabbus doirasida yoshlarimizning yetuk insonlar bo'lib kamol topishi uchun ko'p ishlar qilinayotir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bizning maktabimizda ham, keng polosali Internet tarmog'iga

ulangan IT texnologiyalari mavjud. Ta'lim muassasamiz "Zamonaviy maktab" loyihasi doirasida kapital ta'mirlanib, yangi rusumdagi jihozlar bilan ta'minlandi. Bu sifatini oshirishga, o'g'il-qizlarning yanada savodli bo'lishiga xizmat qiladi. Aytish joizki, yaqin kelajakda maktab qoshida yangi o'quv markazlari tashkil etilib, o'quvchilar shu yerda qo'shimcha bilim olishiga imkon yaratilishi ko'zda tutilgan. Va bu yerda bolalarning oliy ta'lim muassasalariga kirishi uchun imtiyozli o'quv mashg'ulotlari faoliyat boshlaydi.

Maktab direktori Gulnora Isomova va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosari Nilufar Rashidova boshchiligidagi turli tadbirlarda faol ishtirok etgan va nufuzli tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallagan o'quvchilarni taqdirlash yaxshi an'anaga aylandi. Bu sa'y-harakat iqtidorli bolalarning tengdoshlari uchun motivatsiya bo'ladi, albatta.

O'tgan yilgi maktab bitiruvchilarining 49 foizi oliy ta'limga qamrab olingani quvonarlidir. Bu yilgi ko'rsatkich undan-da yuqori bo'lishiga umidvormiz. Jumladan, birgina o'zim rahbarlik qilgan sinf o'quvchilarining 70 foizi oliy ma'lumotli bo'lishga qattiq bel bog'lashgan. Pedagog sifatida bu o'quvchilarning ahil-inoq, bilimdon va do'st bo'lib maktab ostonasida turganini ko'rib faxrlanaman.

Ma'pura AKRAMOVA,  
Poytaxtimizdagi  
61-maktab o'qituvchisi

## Bitiruvchilarga tabrik – yuksak ishonch namunasi

Bu yilgi "So'nggi qo'ng'iroq" bayrami bitiruvchilarga o'zgacha kayfiyat, ko'tarinkilik bag'ishladi. Chunki davlatimiz rahbari tomonidan ilk marotaba maktablarning bitiruvchi o'g'il-qizlariga bayram tabrigi yo'llandi.

Bundan nafaqat o'quvchi yoshlar, balki umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ta'lim xodimlari hamda ota-onalar ham ruhlandi, qalbi quvonchga to'ldi. Bu Prezidentimizning yoshlarga, ertamiz egalariga bildirgan ishonchining namunasi desam adashmagan bo'laman. Minbarda turib tabrikni egalariga yetkazar ekanman, o'zimni bitiruvchilar o'rimga qo'ydim keldi. Ularga ko'rsatilgan bu qadar yuksak e'tibordan mamnunlik tuydim.

Oxirgi yillarda ta'limga e'tibor kuchayganini va buning amaldagi natijalarini ko'rib, his qilib kelmoqdamiz. Davlatimiz rahbari tabrikda keltirganidek, "Qisqa muddatda maktabgacha ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. "Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi" degan shior asosida maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakati aylandi. Bu haqda gapirganda, oxirgi to'rt yilda 134 ta yangi maktab qurilib, 2 ming 965 ta maktab rekonstruksiya qilinib, tubdan ta'mirlangan va jihozlanganini qayd etish lozim. Yurtimizda mutlaqo yangi-gicha mazmun va shakldagi zamonaviy Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar barpo etilmoqda". Albatta, bu keng ko'lamlil ishlar kelajak avlod ta'limi, ularni yurt koriga yaraydigan salohiyatli kadr qilib tarbiyalashga qaratilmoqda.

Maktabimiz tashkil etilganiga 11 yil bo'ldi. Bu yilgi bitiruvchilar maktabning 1-sinfiga qabul qilingan ilk o'quvchilari hisoblanadi. 315 o'ringa mo'ljallangan ta'lim dargohimizda 545 nafar o'quvchi tahsil oladi. Shulardan 51 nafari maktabni bitirmoqda. Bu yil ham pandemiya sharoitida ta'limni olib bergan bo'lsakda, arzigulik natijalarga erishdik deb hisoblayman. Bitiruvchilarimizdan 4 nafari chet

el OTMlariga qabul qilindi. Qolaversa, o'quvchilarimiz kompyuter texnologiyalari sohasida "1 million dasturchi" onlayn loyihasida qatnashib sertifikatlar bilan taqdirlandi. Turli ko'rik-tanlovlarda faxrli o'rinlarni egalladi.

O'tgan o'quv yilidagi pandemiya holati o'quvchilarimizni bilim olishdan to'xtamaslikka, har qanday vaziyatda ham ilm izlashga bo'lgan e'tiborni susaytirmaslikka o'rgatdi. Shu o'rinda Prezidentimizning quyidagi so'zlari yodimga keldi: "Ishonchim komil, yangi O'zbekiston sharoitida, zamonaviy taraqqiyot talablari asosida ta'lim-tarbiya olgan yosh avlod vakillari sifatida barchangiz davlatimiz, xalqimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlarni qadrlab, ularidan yanada samarali foydalanasiz".

Tabrik matniga yana bir ko'z yurgurtirar ekanman, davlatimiz rahbarining yoshlar masalasida naqadar jon kuydirayotganini his qildim. Kichik maktabimiz, u qadar ko'p bo'lmagan o'quvchilarimiz ta'lim-tarbiyasidagi o'zgarishlarni yodga oldim. Ular orasida sportchilar yetishib chiqayotgani, 5 tashabbus doirasida kitobxonlar, musiqa yo'nalishiga qiziquvchilar ko'payganidan quvonaman. Xususan, o'quvchi yoshlar orasidan ijodkorlarni yetishtirish maqsadida maktablarga shoir, yozuvchi, jurnalistlarning birlashtirilishi ham aytilayotgan gaplarning amaldagi isboti bo'lmoqda. Men Prezidentimizning bitiruvchilarga atalgan maktabdagi rahbar sifatida o'zimga kerakli xulosalarni chiqardim. Bundan keyin ishonchni oqlashga harakat qilib, yanada kuch va g'ayrat bilan ishlash maqsadidaman.

Vazira SULAYMONOVA,  
Zangiota tumanidagi  
26-maktab direktori  
Zangiota tuman kengashi deputati

# Majburiy mehnatmi yoki mehnat tarbiyasi?

Yaqinda o'zim o'qigan maktabga bordim. Kiraverishda qiyg'os gullagan turfa gullar ifori borliqni tutgan. Lekin bir jihat e'tiborimni tortdi: gulzor o'rtasida qog'oz parchalari, selofan paketlari uyulib qolgan...

Qaytar chog' avval uzr so'rab, maktab direktoriga shu holatni aytdim. Aytdim-u, direktorning yarasiga tutuz sepganimni angladim: bolalar mehnati, majburiy mehnat, xodimlarni va o'quvchilarni obodonlashtirishga majburlash, bunday holatlarning ijtimoiy tarmoqlarda tezda shov-shuvga sabab bo'lishi, rahbarga chora ko'rilishi, jazolash... Xullas, biror o'quvchi yoki xodimga bu yumushni bajartirish istagi yo'qligini, boshi balolarga qolishini xohlamasligini aytdi. O'ylanib qoldim. Qachondan beri tozalik, orastalik uchun ter to'kish majburiy mehnatga aylanib qoldi? Axir, o'z ish joyi, tahsil olayotgan maskanini ozoda tutish, supurib-sidirish, ko'kalamzorlashtirish, obod qilishning yomon tomoni bormi?

## Qonunchilik nima deydi?

Majburiy mehnat – ish beruvchi yoki fuqaro tomonidan biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali, shuningdek, mehnat intizomini saqlash maqsadida fuqaroning ixtiyoriga xilof ravishda majburiy ravishda ish yoki xizmat bajartirish hisoblanadi.

Bolalar mehnati – bolalarni yoshligidan, insoniy qadr-qimmatidan, intellektual salohiyatini rivojlantirish imkoniyatidan mahrum qiluvchi hamda jismoniy va aqliy rivojlanishiga zarar yetkazuvchi ishlar. Maktabdan keyin yoki ta'til davrida cho'ntak puli ishlash maqsadida bolaning uy-ro'zg'or hamda qishloq xo'jaligi ishlarida ota-onasiga yordam berishi bola mehnati hisoblanmaydi. Chunki bularning barchasi bolaning rivojlanishi va oila farovonligiga, kelajakda jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishi uchun talab qilinadigan ko'nikma va tajribaga ega bo'lishiga yordam beradi, salomatligi va rivojlanishiga ta'sir etmaydi hamda ta'lim olishiga to'sqinlik qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2009-yil 29-iyulda 1990-son bilan ro'yxatdan o'tgan qo'shma qarorda 18 yoshdan kichik shaxslarni mehnatga jalb qilish taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlar ro'yxati keltirilgan. Bu ro'yxatda maktab gulzorini chopib yumshatish yo' issiqxonadagi o'simliklarni parvarishlash yoxud yo'lak chetlaridagi begona o'tlarni yulib, supurish yo'q...

## Nishonni to'g'ri oling, blogger!

To'g'ri, shunday paytlar ham bo'ldiki, ba'zi kasb egalari, xususan, o'quvchilar ham majburiy mehnatga jalb qilindi, 1-sinf o'quvchilarigacha paxta yig'im-terimiga haydaldi. O'qituvchi-yu shifokorlar, zavod ishchisi-yu tadbirkorlar o'z ishi qolib, obodonchilik va tozalik ishlariga jalb qilindi. Xayriyat, hukumatimiz tomonidan bu ishlarga chek qo'yildi. Biroq bu asrlar davomida an'anaga aylangan mehnat tarbiyasini majburiy mehnat deb atashni anglatmaydi!

– Maktabimiz hududida yarim gektarga yaqin yer bor, – deydi Quva tumani Qaqir qishlog'idagi 5-maktab direktori Dilfuza Qirg'izova. – Shuncha maydonni faqat xo'jalik mudiri zimmasiga yuklab qo'yish isfodan bo'lmaydi. Ba'zan o'qituvchilar, gohida yuqori sinf o'quvchilari ixtiyoriy ravishda gullar va daraxtlarni, ekin-tikinni parvarishlashda unga ko'maklashamiz. Ishonasizmi, shunday paytlarda, garchi hech kim qarshilik bildirmasa-da, kimdir boshqacha talqin qilmasmikan, deb yuragimni hovuchlab turaman.

Opaning ilhaq bo'lganicha bor. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda istalgan fikrni aytishga urinatog'banlar bisyor. Masalaning tub ildiziga yetmay, ko'r-ko'rona axborot tarqatuvchilar ko'p. Ayniqsa, maktab o'quvchilariga aloqador mavzuda, "majburiy mehnat" borasida... Tarmoqlardagi "majburiy mehnat" tamg'asi qo'yilgan ayblovlarini kuzatar ekansiz, hammasi bir-biriga yaqin, ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va tozalash ishlari...

## Mehnat qilib hech kim kam bo'lmaydi

Azaldan ko'chatchilik, gulchilik bilan mashhur Qaqir qishlog'idagi maktab hovlisini aylanamiz. Barq urib o'sayotgan archa, shamshod, gul ko'chatlari soni mingdan ortiq, ularni kelgusi bahorda sotish rejalashtirilgan. Bir tomonda ixchangina limonariy, bir yoqda 2 sotixlik issiq-

xona. Issiqxonaga ekilgan bodring ko'chatlari qiyg'os gullarda, qalampirlar baravj.

– Xohlovchilar darsdan tashqari paytlari kiyimlarimizni almashtirib kelib dehqonchilik ishlarida qarashamiz, – deydi maktab o'quvchilari Gulsevar Halimjonova va Ruslan Hoshimov. – Uyda qilib yurgan ishimiz, shu bois yer chopish, o'tlardan tozalash, oqlash, kesish biz uchun qiyin emas. Aksincha, ish jarayonida sinfdoshlarimiz bilan suhbatlashish, har xil mavzularda bahslashish zavq beradi. Ota-onalarimiz ham bajonidil ruxsat berishadi.

– Issiqxonani o'tgan yili maktabimizning sobiq bitiruvchisi homiylik qilib qurib berdi, – deydi maktabning jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Ilhomjon Komilov. – Bu tashabbus ko'pchilikka o'rnak ham bo'ldi, biz ham shu yerda o'qiganmiz, maktabimizga nima yordam qilaylik, deb keluvchilar paydo bo'la boshladi.

Maktab yerida dehqonchilik ortidan mo'may daromad ham olinmoqda. Ana shu mablag'lar evaziga sinfxonalarning isitish tizimi to'liq ta'mirlanib, zamonaviy "Akfa" eshik-romlar o'rnatilibdi, pishiq g'ishtdan bitta yangi sinf xonasi qurib bitkazilibdi. Birovga yordam so'rab borilmabdi, yuqori tashkilotlarga "qurib bering", "ta'mirlab bering" deb zorlanishmabdi, ota-onalardan pul yig'ilmabdi. Hozir ham maktabning bankdagi hisobraqamida 8 million so'm puli bor ekan! Rosti, qoyil qolmay iloj yo'q. Maktabning ahil va mehnatsevar pedagogik jamoasi bu borada faxrlansa arziydi.

Maskanda ta'lim, o'qitish sifati ham maqtangulik. 8-sinf o'quvchisi dunyoning 80 dan ortiq davlati vakillari ishtirok etadigan tanlovda, 11-sinf o'quvchisi matematika, yana ikki nafar o'quvchi ingliz tili bo'yicha xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarga erishgan. Bolalar kurash, futbol musobaqalarida ham birinchilikni qo'lga kiritishgan. Tuman, viloyat miqyosidagi fan olimpiadalarida, tanlovlarda maktab o'quvchilari faol qatnashishadi.

Bir so'z bilan aytganda, yarim gektar yerda mehnat qilish ta'limga, o'qib-izlanishga zarracha xalal qilmayapti.

## Kelajakni toblanganlarga topshiraylik

– Besh farzandim bor. Ularning yutuqlari bizni quvontiradi. Lekin har bir yutuq zamirida mehnatsevarlik muja-samligini unutmashlik kerak, – deydi toshloqlik Feruzaxon Muhammadiyeva. – O'quvchiligidamizda shanba kuni to'liq mehnat darsi o'tilardi. O'smirlarga, avvalo, oilada, keyin maktabda mehnat tarbiyasi berilishi tarafdoriman. Mehnat qilish hayotdagi qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, to'siqlarni yengib o'tishga, muammolar qarshisida dovdirab qolmaslikka o'rgatadi. Axir, hammamiz ham mehnatning orqasidan muayyan yutuqlarga erishganmiz-ku. Faqat me'yorni bilish kerak. Mehnatda toblangan boladan yomonlik chiqishi qiyin.

Bugun mehnat tarbiyasi va majburiy mehnatni bir-biridan farqlab olishimiz zarur. Allaqaysi blogerning noto'g'ri tashviqoti natijasida yoshlarimizning yengil hayotga o'rgangan, dangasa va takasaltang bo'lib qolishiga jim qarab turish mumkin emas. Aniroq aytsak, ish va o'qishga xalaoqit qilmagan holda biror daraxtni oqlash, butash yoki atrofini tartibga keltirish majburiy mehnat deb baholanmasligi, maktablarda o'quvchilarning ixtiyoriy tarzda og'ir bo'lmagan ishlarga qatnashishi bolalar mehnati deb talqin qilinmasligi kerak. Aks holda, kelgusi avlod ko'chalarni supurish, suv sepib orasta qilish, beminat yordam va hasharni bilmay ulg'ayishi, milliy qadriyatlarimiz haqida faqat kitoblardagina o'qishi chitmoldan xoli emas.

Hayotjon BOYBOBOYEV

## Mehnatsevar etib tarbiyalaylik

Bu haqda gap ketganda o'quvchilik yillarim esimga tushadi. Boshlang'ich sinflarda o'qigan paytlarimiz paxta yig'im-terimiga majburan chiqar edik. Lekin mehnat darsida maktabimiz hududidagi, bog'idagi yumushlarni zavq bilan bajarardik, chunki buni o'zimiz xohlar edik.

Yuqori sinfda o'qigan paytlarimiz maktabimizni obodonlashtirish, ta'mirlash ishlariga o'z-o'zidan qiziqib kirishib ketardik. Bu ishlar dars jarayoniga ta'sir qilmadi, albatta. O'sha davrda mehnat tarbiyasi shunaqangi tushuntiriladiki, hamma o'zi xohlab va qiziqish bilan mehnat qilardi. Ehtiyoj uchun ota-onamizdan mablag' so'ramasdan, o'zimiz ishlab topganmiz. Bu birontamizning sog'ligimizga zarar qilmagan, aksincha, hayotda qiyinchiliklarga tayyor turish, ularni yengib o'tishga, muammoga yechim topishga o'rgatgan. Shu bilan birga, o'zaro samimiy suhbatlar kechardi, bir-birimizga yordamlashish, zarur o'rinlarda aybimizni aytishga o'rganganmiz. Hozir ham o'sha davrni eslasak, kayfiyatimiz ko'tarilib, yoshlikka qaytgandek bo'lami.

Kunlar kelib majburiy mehnatga chek qo'yildi. Hozir maktab o'quvchilari hech qanday mehnatga jalb qilinmayapti. Lekin yoshlarimiz o'zi xohlasa, qiziqish bildirsa, ishlashga ruxsat berish kerak. Aslida, men ham majburiy mehnatga qarshiman, ammo xohish bilan, ayniqsa, ko'pchilik bo'lib, hashar usulida mehnat qilishning nimasi yomon?! Fikrimcha, farzandlarimizni mehnatkash emas, mehnatsevar qilib tarbiyalashimiz kerak. Bu esa biz, kattalarning vazifamizdir.

Baxtiyorjon MO'MINOV

Qo'shtepa tumani

## Kelajagimiz vorislari uchun mas'ulmiz

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasi dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Dolzarblig shundaki, bu boradagi chegarani, aytish mumkin bo'lsa, muayyan chiziqni aniqlab olishimiz zarur. Bu hech birimizni befarq qoldirmasligi kerak.

Ma'lumki, maktab — ta'lim-tarbiya maskani. Ya'ni, bu qutlug' maskanda bolalarga ilm bilan birga odob-axloq, tarbiya ham beriladi. Mehnat tarbiyasi esa shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi jihatlardan sanaladi.

Ko'p yillardan buyon maktabda o'qituvchilik qilaman. Aslida, o'quvchilar o'zlari ta'lim olayotgan maktab, sinfxonasini ozoda tutishga ishtiyoqmand bo'lishadi. Hatto quyi sinflarda navbatchilik talash bo'ladi. Bundan tashqari, maktab hovlisiga turli ko'chatlar, gullar ekish bolalarga zavq beribgina qolmay, ularni mas'uliyat, faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi.

Mehnat tarbiyasida ota-onalar asosiy o'rin tutadi. Uyda, oilada mehnat qilishga, kattalarga yordamlashishga o'rgangan bolalar boshqalarga qaraganda ertaroq mustaqil fikrlaydigan, to'siq va muammolardan qo'rqmaydigan bo'lib ulg'ayishadi.

O'quvchilik paytimizda "Ijtimoiy foydali mehnat" degan dars o'tilardi. Haftada bir kun maktab hududiga daxldor tozalash, obodonlashtirish, yig'ishtirish ishlari bilan shug'ullanardik. Ochiq'i, ko'p ham terga botib ishlamasdig-u, lekin bu vaqtdagi samimiy suhbatlar, hazil-huzul, xush kayfiyat bizni o'ziga chorlab turardi.

Maktab ham kichik vatan hisoblanadi. Bu maskandagi barcha sa'y-harakatlar yosh avlod kamolotiga yo'naltirilgan bo'ladi. Zero, bu yerda maqsadlari yuksak, olijanob insonlar mehnat qilishadi, yurtimiz kelajagi vorislari voyaga yetadi.

Matlubaxon AZIMOVA,  
Flishton tumanidagi  
8-maktabning ona tili va adabiyot  
fani o'qituvchisi

# KATTALAR uchun ERTAK



**B**or ekan-u yo'q ekan, och  
Bekan-u to'q ekan. Bir ajab  
davr ekan, mirshab kissa-  
vur ekan, o'g'riboshi qozi ekan,  
ko'plar norozi ekan, hokim bo-  
zorchi ekan, dodxoh bekorchi  
ekan...

ekan. Bolalari ulg'ayib, o'zlari qartay-  
gach Susambilga ketish navbati farzan-  
dilariga yetar ekan.

Susambillik qashqirlarni, ular rizqini  
naqd o'sha qashqiming halqumidan terib  
olishini, hech vaqo topolmasa ham joni  
omon qolganiga shukur qilib, uyiga qay-  
tishini inobatga olmaganda Susambil-  
da o'tning quyug'i, suvning tinig'i  
mo'l ekan. Azob-uqubat, g'am  
yo'q, ovqat mo'l,  
qorin doim to'q bo'lar  
emish.

Ertak  
shunday  
boshlanarmidi o'zi?

Xato o'tgan bo'lsa aybga buyur-  
maysiz. Matal eshitmaganimga ham  
yigirma yildan oshibdi. Oftob qizdir-  
dandan qizdirayapti. Bunday paytlarda  
biror ishga qo'l boradimi? Chala-chulpa  
qorinni to'qlab, soyaning quyug'ida uy-  
quni urging keladi. Ayni damda birorta-  
sining yoniga borib: "Turing, janob,  
sizni buyuk ishlar kutmoqda", deya  
faransuzcha tavoze bilan uyg'otmoqchi  
bo'lsangiz ham foydasiz.

Biz ham bekorchilikdan nima qila-  
rimizni bilmay, uyg'otish qo'limizda  
kelmasa, harna xotirjamroq uxlashiga  
ko'maklasharmiz degan maqsadda ertak  
aytishni boshlagan joyimiz edi. Qarasak,  
esdan chiqib ketgan ekan. Mayli, nima  
bo'lsa, bo'ldi. Ko'zingizni yumib eshi-  
ting. O'xshamagan joyini o'zimizdan

qo'shib-chatib davom  
ettiraveramiz-da endi.

Qadim-qadim zamonda,  
yo g'arb, yo sharq tomonda, aniq bilmam  
qayoqda, ayoni bizdan juda uzo-oqda bir  
mamlakat bor ekan. Uning yeri oltin-u  
zumradga to'la, o'tin-u shamchirog'i  
mo'l bo'lsa-da, fuqarolari kambag'al,  
o'chog'i o'tsiz, qozoni utsiz ekan.  
Qorong'i tnlarda onalar bedor bolalarini  
"Susambil" haqida ertaklar aytib uxlata-  
r ekan. Shu sababdan u mamlakatning bo-  
lalarini eslarini tanir-tanimay, Susambilga  
talpinar, ota-onalarning ko'pchiligi "ro-  
hat-farog'at"da yashash uchun o'z yur-  
tini tashlab Susambilga ravona bo'lar

Susambilga ketmaganlar haqi-  
da so'rasangiz bekorchilikdan menga  
o'xshab ertak to'qib o'tirsa mayli-ya,  
birovining ro'moli, yana birovining ish-  
tonbog'iga yopishishdan boshqasini bil-  
mas ekan.

Bir kuni maktabga o'quvchi qiz  
ro'mol o'rab kelibdi. Sochlari qo'qi-  
gan, hamisha o'tgan-ketganning ko'zini  
o'ynatib, kalta etakli libosda yuruvchi

dugonasi alami kelganidan ro'molini  
yechib olmoqchi bo'libdi. Bir uchidan  
ushlab tortibdi-tortibdi, yechib ololmab-  
di. Keyin borib sinf rahbarini yordam-  
ga chaqiribdi. "Soqol qo'ygan, ro'mol  
o'ragan — terrorist" degan g'oya bilan  
ulg'aygan sinf rahbari ham tezgina unga  
yordamga oshiqibdi. Dugona ro'molni,  
sinf rahbari dugonani tortibdi-tortib-  
di, yana ro'mol qurg'ur yechilmabdi.  
So'ng sinf rahbari "zavuch"ni ko'mak-  
ka chaqiribdi. "Zavuch" sal yoshliroq  
bo'lgani bois, ro'molga nisbatan nafrat  
ancha oldin — ustoz "Mafkuraxonim"  
zamonlaridayoq shakllangan ekan. Shu  
sabab "zavuch" ham bu savobli ishga  
o'z hissasini qo'shishni istabdi. Dugo-  
na ro'molni, sinf rahbari dugonani, "za-  
vuch" sinf rahbarini tortibdi-tortibdi,  
ro'mol yechilmabdi. So'ng "zavuch"  
direktorni yordamga chaqiribdi. Direk-  
tor ham bunga jon-jon deb rozi bo'libdi.  
Nega deysizmi, "Maktabimdagi yalang  
boshlarning ichida hech vaqo yo'q. Of-  
tob-poftob urgan chiqar. Qani, ro'mol  
o'raganlamikida biror narsa bornikan?",  
deb qiziqqandir-da, men qaydan bilay.  
Dugona ro'molni, sinf rahbari dugonani,  
"zavuch" sinf rahbarini, direktor "za-  
vuch"ni tortibdi-tortibdi, afsuski, yana  
ro'mol yechilmabdi. Keyin mirshablar,  
qozilar, amaldorlar hamma-hammasi  
bunga jalb qilingachgina ro'mol masala-  
si yechilibdi. Eski zamonlarda duellar-u  
janjallarni to'xtatish uchun o'rtaga tash-  
langan ro'mol bu gal ham o'z vazifasini  
o'tabdi. Ro'mol yerga tushishi bilan bu  
mojaro ham to'xtabdi (Aytishlaricha ho-  
zir u mamlakatda 5-6 kishi bo'lib pan-  
aroda duch kelgan ayolning etagidan  
tortish bilan shug'ullanishayotgan em-  
ishlar).

Mana, nihoyat ertagimiz ham o'z  
yakuniga yetdi. Endi bemalol uxlayve-  
ring, faqat alag'-jalag' tushlar ko'rsangiz  
bizdan o'pkalamang.

O'gay GRIMM

## Ulug'bek qo'ygan narvondan biz emas, boshqalar chiqdi

Har qanday davlatning xalqaro miqyosdagi  
obro'-etibori o'sha davlatda ilm qay darajada rivoj-  
langanligiga bog'liq.

O'zbekiston Fanlar aka-  
demiyaning ilmiy-omma-  
bop nashri bo'lgan "Fan va  
turmush" jurnali necha yil-  
lar mobaynida xalqimizga  
ilm-u ma'rifat ulashib keldi.  
Ming afsuski, keyingi 20-25  
yil davomida "Fan va tur-  
mush", "O'zbekiston adabiyoti  
va san'ati", "Sharq yulduzi"  
kabi gazeta va jurnallar adadi  
tushib, na maktab, na univer-  
sitet kutubxonalarida va na  
matbuot shoxobchalaridan  
ularni topib bo'ladigan bo'ldi.  
Bozor iqtisodiyoti qonunlarini  
chetlab o'tib bo'lsa-da, ilm-u  
ma'rifat tarqatuvchi ushbu  
nashrlarga imtiyozli narxlarda

obuna tashkil qilish maqsadga  
muvofiq deb o'ylayman. Biz-  
ga Oллоh bergan buyuk ne'mat  
bo'lmish mustaqilligimizni  
mustahkamlash uchun birinchi  
navbatda nima kerak? Albatta,  
ilm-ma'rifat. Ilm-fan yo'lida  
sarflangan mablag' bir necha  
barobar foydasi bilan qaytadi.  
Shu bois ilmiy muassasalarda  
ishlaydigan kadrlarning diplo-  
miga emas, ilmiy salohiyatiga  
etibor qaratish kerak.

Chamasi bundan 5-6 yil  
muqaddam televizorda beril-  
gan bir ko'rsatuv yodimga  
tushdi. Oliy o'quv yurtlaridan  
tanlab olingan yetti nafar ta-  
laba tik oyoqda saf tortib tu-

rardi. Boshlovchi ularga savol  
berdi: "Parrakli samolyotda  
o'ya borib bo'ladimi?". Ta-  
labalar bir-ikki daqiqa sukut  
saqlab qolishdi. "Kim borib  
bo'ladi, desa bir qadam oldinga  
chiqsin" dedi boshlovchi. Bir  
bilimdon oldinga chiqdi, ke-  
yin ikkinchi, uchinchi, to'rtin-  
chi ishtirokchi... Bu voqeani  
eslashimga sabab, talabalar-  
mizning ko'pchiligi shiddat bi-  
lan rivojlanib borayotgan ilm-u  
fan taraqqiyoti talabiga javob  
berolmaydi. Yerning tortishish  
kuchini yengib kosmosga chi-  
qish uchun sekundiga 7,9 ki-  
lometr birinchi kosmik tezlik  
talab qilinadi. Bunday tezlikni  
parrakli samolyotda hosil qilib  
bo'lmasligini talabalar orasi-  
dan saralab olingan bilimdonlar  
bilishi kerak edi.

Bugun aniq fanlar bo'yicha  
malakali mutaxassislar tayyor-

lashga katta urg'u berishimiz  
kerak. Ommaviy axborot vula-  
sitalari orqali ilmiy mavzular-  
da kengroq chiqishlar qilish,  
ayniqsa, O'zbekiston Fanlar  
akademiyasi bilan barcha o'quv  
muassasalari o'rtasida hamkor-  
lik o'rnatish, O'zFA nashrlari,  
xususan "Fan va turmush"  
jurnali bilan barcha ta'lim  
muassasalari kutubxonalarini  
ta'minlash zarur.

Qaysi davlatning ilmiy,  
iqtisodiy, siyosiy savodxonli-  
gi past bo'lsa, bu davlat og'ir  
xastalikka uchrabdi deyish  
mumkin. Biz ham endi buyuk-  
larimizdan faxrlanib yurish bi-  
langina chegaralanib qolmay,  
ularga munosib voris bo'lishga  
intilaylik. Koinotga ilk bor biz-  
ning Ulug'bek bobomiz narvon  
qo'ygan bo'lsa, o'sha narvon-  
dan boshqalar chiqib ketib  
bo'ldi. Ibn Sino dahomiz tibbi-

yot faniga asos solgan bo'lsa,  
bugungi kunda eng murakkab  
tibbiy jarrohlak muolajalari  
boshqa ellarda qilinmoqda.

Buyuk astronom olim Ga-  
liley "Matematikaga asoslan-  
magan har qanday ilm safsata-  
dir" deydi. Bu borada Galiley  
mubolag'a ishlatgan albatta.  
Ammo aniq fanlar insoniyat  
taraqqiyoti uchun katta ahami-  
yatga ega ekanligini ko'rsatib  
bermoqchi bo'lganini tushu-  
nishimiz kerak. Yoshlari-  
mizning ilmiy saviyasini os-  
hirish uchun xorij davlatlariga  
o'qishga yuborish bilan chek-  
lanib qolmay, xorijning nufuzli  
oliy o'quv yurtlaridagi kerakli  
ilmiy adabiyotlarni keltirib,  
o'z ona tilimizga tarjima qilib  
o'qitishimiz zarur. Chunki ki-  
shi o'z ona tilida eng murakkab  
ilmiy jarayonni tushuna olishi,  
bilishi, o'z tilida tafakkur qila  
olishi lozim.

Mursalxon OBIDOV,  
Kasbi tumani

# "Bilim" AKM – bino bo'lishdan binosizlikkacha

Kutubxona nafaqat kitoblarni avlodlardan avlodlarga yetkazib beruvchi, balki ma'rifatni targ'ib etuvchi, insonni chin ma'noda komillikka, eziglikka yetaklovchi maskanligi bilan ham muqaddasdirlar.

Mamlakatimizda ana shunday sharafli vazifani bajarib kelayotgan maskanlardan biri Toshkent shahar "Bilim" axborot-kutubxona markazidir. U 84 yildirki kitobsevar, bilimparvar insonlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

"Bilim" kutubxonasi asos bo'lgan birinchi ommaviy kutubxona 1937-yili Toshkentda general-gubernator Kuropatkinning yozgi dalahovlisi binosida tashkil qilingan. Dastlab uning fondi 10 000 ga yaqin kitobdan iborat edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida ham kutubxona faoliyat ko'rsatgan. Hozirgacha kutubxonada tashkil etilgan o'lkashunoslik muzeyida 1941–1945-yillarda fondga kelib tushgan nashrlar saqlanishi ko'p kitobxonlar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda.

1972-yil sentabrda kutubxona markaziy shahar kutubxonasi maqomini oldi, bu davrga kelib kitob fondi 48619 nusxaga yetdi.

Shahar kutubxonalarini markazlashtirish qaroriga binoan, 1977-yilda "Bilim" markazlashgan kutubxona tizimidagi Markaziy shahar kutubxonasi maqomini oldi va u ikki tuman kutubxonasini birlashtirdi, ya'ni Sirg'ali tumanining oltita kutubxona filiali va Yakkasaroy tumanining beshta kutubxona filiali birlashti. Shu yili kitob fondi 88706 nusxaga yetdi. Markazlashtirilgan kutubxonalar tarmog'ini sifatida 1994-yilgacha faoliyat ko'rsatdi.

1983-yildan kutubxonaga direktorlik qila boshlagan Agrafena Tyan kutubxonasi binosini o'zgartirish maqsadida jonbozlik ko'rsatgan. 1985-yil yozida "Bilim" Markaziy shahar kutubxonasi rahbariyati, buxgalteriya, butlash va qayta ishlash bo'limi, uslubiy-bibliografik bo'limlari yangi bino-ga ko'chib o'tdi (Chilonzor, "C" mavze, 14-uy).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi "Bilim" markaziy shahar kutubxonasi negizida "Bilim" axborot-kutubxona markazi tashkil etildi.

Kutubxonaning zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishi kutubxonachilarni qo'l mehnatidan ozod etib, ularning kitobxonlar bilan madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borishga ko'proq vaqt ajratishiga imkon beradi. 2006-yili kutubxonada kitobxonlar uchun 15 ta kompyuterdan iborat lokal set va internetga ulangan elektron o'quv zali tashkil etildi. 2008-yili kutubxonadagi mavjud kompyuterlar soni 27 ta bo'lgan bo'lsa, ayni kunda 46 ta. Markazda yettita bo'lim o'z yo'nalishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatadi.

Kutubxona mamlakatimiz aholisi, va ayniqsa, yoshlarimizga zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan holda tez va sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil etishda ilmiy-uslubiyat bo'limining ahamiyati alohida o'rinni egallaydi. Bo'lim ikki tilda kutubxona faoliyatiga doir qo'llanmalar, yo'riqnomalar va tavsiyalar ishlab chiqadi hamda shahardagi barcha mavjud axborot-kutubxona muassasalari faoliyatiga

ga keng tatbiq etadi. Shu bilan birga kutubxonachilikdagi ilg'or tajriba maktabi, tuman axborot-kutubxona markazlari va boshqa tizimdagi axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ilmiy-uslubiy markaz sifatida ish olib boradi. Shuningdek, turli sohalarga oid metodik-bibliografik qo'llanmalar va elektron ma'lumotlar bazalarini yaratadi.

Markazga kelib tushayotgan og'zaki, yozma so'rovlarga aniq faktlar asosida tezkorlik bilan samarali javob berish bevosita axborot-bibliografiya bo'limi zimmasida. Bo'limga o'lkashunoslik o'ld adabiyotlar sektori mavjud bo'lib, o'lkashunoslik bo'yicha nashr etilgan adabiyotlar, turli tipdagi axborotlarni targ'ib qiladi.

Bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy muassasa, muntazam ravishda bosma asarlarni to'plash, saqlash, targ'ib qiluvchi ilmiy maskan kutubxonaga bo'lsa, uni kitobxonlarga yetkazish va ommangin madaniy saviyasini oshirishda foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi yetakchilik qiladi. Ushbu bo'lim markazning asosiy faoliyatini tashkil etib, uning maqsadi kitobxonlarning axborot va adabiyotga bo'lgan talablarini tez va sifatli qondirishdan iborat. "Bilim" axborot-kutubxonada markazda foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish uchun tashkil etilgan kutubxonaga abonentlari, umumiy o'quv zali, elektron o'quv zali, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yoshlar bilan ishlash sektorlari orqali xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Axborot texnologiyalari bo'limi negizida aholining kompyuter savodxonligini oshirish maqsadida o'quv kurslari barcha yoshdagi foydalanuvchilarning hamda hamkorlikda faoliyat olib borayotgan litsey, kollej va maktab o'quvchilariga bepul tarzda axborot texnologiyalari bo'yicha bilim berish faoliyati maxsus reja asosida muntazam yo'lga qo'yilgan.

Ayni kunda foydalanuvchilarning faqat markazga kelib emas, balki uyida, ishxonasida, o'quv muassasasi, dam olish joyi kabi turli makonlardan turib ham markaz tarixi, faoliyati, tuzilishi, asosiy vazifalari, yangi adabiyotlar va ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan *bilim.natlib.uz* veb-sahifasi orqali tanishib borishi, takliflarini bildirishi, axborot bo'yicha savoli va buyurtmasini qoldirishi mumkin. Bugungi kunda saytdan foydalanuvchilar soni 100 ming nafardan ortiq.

2019-yildan buyon Janubiy Koreyaning iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik jamg'armasi bilan birgalikda "Milliy umumta'lim elektron kutubxonasi" (UZNEL) loyihasi asosida markazda kitobxonlar talabi asosida kitoblarni raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Hozirgacha 8253 ta bibliografik yozuv, 3285 ta to'liq matnli kitoblar, 10735 ta maqola kiritilgan. Markazning elektron sayti ([www.bilim.natlib.uz](http://www.bilim.natlib.uz)), telegram ([https://t.me/bilim\\_akm](https://t.me/bilim_akm)), instagram ([https://www.instagram.com/bilim\\_akm/](https://www.instagram.com/bilim_akm/)), facebook (<https://www.facebook.com/bilimakm/>), twitter (<https://twitter.com/AkmBilim>), blog (<https://bilimakm.blogspot.com/>) hamda Youtube kabi ijtimoiy tarmoqlari orqali zamon talablari asosida muntazam ravish-

da foydalanuvchilar uchun yangiliklar, ommaviy tadbirlar, fondga kelib tushgan yangi adabiyotlar asosidagi virtual ko'rgazma va tezkor axborotlar to'g'risidagi ma'lumotlar olish imkoniyati yaratilgan.

Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning yangi shakl va uslublaridan "Kitob chamadonchasining sayohati", "Mobil kutubxonaga", "Kitobxon mahalla" kabi yangi loyihalar ishlab chiqilishi va markaz faoliyatiga joriy etilishi kitobxonlar ommasiga yanada keng imkoniyatlar ehsigini ochgan. "Kompyuter savodxonligi" o'quv kursi, "Yosh kadrlarni o'qitish maktabi", "Yo'l-yo'lakay o'qiyamiz", "Oilaviy kitob o'qiyamiz", "Asar qahramonlarini jonlantiramiz", "Men muvaffaqiyatli ayolman" kabi loyihalar, "Bir soatdan oilaviy kitob o'qish", "Men kitob o'qishni sevaman", "Farzandinga kitob sovg'a qilaman", "Bir soatlik kitob o'qish vaqti" kabi aksiyalar joriy etilgan.

Pandemiya davrida ham kutubxonaga faoliyatini davom ettirdi. "Uyda qolgan – kitob o'qing", "Barcha qiyinchiliklarni ma'rifat bilan yengamiz", "Kitobxonlikning onlayn targ'iboti" shiori ostida 8 ta telegram kanali ochildi. Jumladan, "Kitobxon ona va kitobxon bola", "Kitobxon siyosatchi klubi", "Faol kitobxon" klublari tashkil etildi va "Bilim intellektual klublari" (@bilimklub) kanali yaratildi. Barcha klublar faoliyatini jamlab kanal sahifasida "Eng yaxshi siyosiy iqtibos", "Dunyo bo'ylab...", "Til bor ekan – millat barhayot", "Savodxon kundaligi", "Kitobxon tavsia", "Tinchlik-oliy ne'mat", "Siyosiy savodxonlik", "Geosiyosat olami" kabi turli mavzulardagi loyihalar asosida targ'ibot ishlari muntazam yoritib borildi.

Xodimlarning ko'p yillik ish tajribasi, faoliyatga ilmiy va ijodiy yondashishi, tashkilotchilik markazimiz faoliyatidagi asosiy ko'rsatkichlardagi ijobiy o'zgarishlarda o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan o'tkazilgan "Axborot-kutubxonaga muassasaning eng yaxshi mutaxassisi — 2015", 2017-yili Respublika axborot-kutubxonaga markazi tomonidan tashkil etilgan "Eng yaxshi axborot-kutubxonaga markazi" ko'rik-tanlovlari Toshkent shahri jamoasi faxrli 3-o'rin sohibi bo'ldi. "Axborot-kutubxonaga muassasining eng yaxshi mutaxassisi — 2017" respublika ko'rik-tanlovida esa mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxonaga xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori ijrosi asosida tashkil etilgan Milliy axborot-kutubxonaga haftaligi doirasida "Axborot-kutubxonaga muassasining eng yaxshi mutaxassisi — 2019" respublika tanlovida yana Toshkent shahri jamoasi g'olib bo'ldi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari ilgari surgan 5 ta tashabbus doirasida tashkil etilgan "Bolalar va yoshlarni o'qishga jalb qilish uchun eng yaxshi metodik ishlanma/loyiha" Respublika tanlovida "Foydalanuvchi bilan ishlashning interaktiv shakllari" kitob va kitobxonlik faoliyatini rivojlantirish, bolalar va yoshlarni mutolaaga jalb qilishga qaratilgan nominatsiyasi bo'yicha Markaz tomonidan ishlab chiqilgan "Kitobxon mahalla" loyihasi g'olib deb topildi.

Albatta yutuqlarnizdan quvonamiz, faxrlanamiz, lekin kitobxonlik va mutola madaniyatini oshirish masalasi davlat

siyosati darajasiga ko'tarilgan bir paytda Markaz binosining hozirgi kun talablariga, kutubxonachilik standartlariga javob bermasligi xodimlarni va kutubxonadan foydalanuvchilarni juda-juda ranjitadi.

**"BILIM" AKMGA TASHKIL ETILGANDAN BERI MAXSUS ALOHIDA BINO AJRATILMAGAN.** Hozir Chilonzor tumani, Qatorol ko'chasidagi 9 qavatli 12–14-uyning 1-qavatiga joylashtirilgan. Umumiy maydoni 1083 kv.m.dan iborat bo'lgan joyda 200 mingga yaqin kitob fondi itxoslashtirilgan sharoitda saqlanadi. Xizmat xonalari va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish joylari (abonement o'qish zalari), madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish uchun mo'ljallangan xonalar belgilangan me'yorlarga umuman javob bermaydi. Bu esa kitobxonlar e'tirozi ko'payishiga, ularning qatnovi pasayishiga, yillar davomida aholi uchun to'plangan moddiy-ma'naviy boyliklarning fizik-kimyoviy, biologik va mexanik shikastlanishiga, ularning yo'qotilishiga jiddiy sabab bo'lmoqda va faoliyatini belgilangan me'yorlar asosida to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishiga asosan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan kompleks chora-tadbirlar dasturining 36-bandida hamda 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining 18-bandiga binoan Toshkent shahar "Bilim" Axborot-kutubxonaga markaziga yangi bino ajratilishi kerak edi. **USHBU QARORLAR IJROSI YUZASIDAN 2017-YIL 18-SENTABRDA 1261-SONLI TOSHKENT SHAHAR HOKIMI QARORI HAM QABUL QILINGAN, LEKIN IJROSI AMALGA OSHIRILMAGAN.**

Mamlakatimizda kutubxonalar taraqqiyotiga oid islohotlarning davomiy natijasida 2011-yil 13-aprelda qabul qilingan "Axborot-kutubxonaga faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxonaga xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil 7-iyundagi qarorining Namangan va Farg'ona viloyatlarida ijro etilishi to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrda majlisining 181-son bayoni tasdiqlanganligi bizga yana umid uchunlarni berdi. Chunki ushbu bayonning 11-bandida Toshkent shahar hokimligiga 2021-yilning 1-iyuliga qadar shahar markazidan "Bilim" axborot-kutubxonaga markazi uchun barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan bino ajratish hamda zamonaviy mebel va texnika, inventarlar bilan jihozlash vazifasi yuklatilgan. Isonamizki, obodonlashtirish, bunyodkorlik ishlarida barcha viloyatlarga o'nak ko'rsatayotgan poytaxtimiz kutubxonaga binolariga bergan e'tibori bilan ham o'nak bo'ladi.

Hafiza KARIMOVA,  
Toshkent shahar "Bilim" axborot-kutubxonaga markazi direktori

# Alisher Navoiy asarlarida IT va robototexnika

Hazrat Alisher Navoiyning ijodiy merosini muazzam ummonga o'xshatishadi. Zangori osmon ostida chayqalib turgan bahri muhitning shiddatkor to'liqlari quyoshning munavvar nurlari bilan qorishib, borliqqa yorqin ifor taratadi. Ko'zni qamashtirib, ko'kka o'rlayotgan tomchilarning har birida ilohiy nur jilvalanadi. Navoiy merosi ana shunday boqiy, maftunkor. Bu tabarruk zot ijodini o'rgangan kishilarning qayta-qayta hayratga tushaverishining sababi ham shunda.

Navoiy ham barcha fanlar bilan shug'ullandi — ilmi nujum, musiqa, tabobat, lug'atshunoslik, o'q otish san'ati, adabiyot nazariyasi, qushlar hayoti — zoologiya. Xususan, uning tasviriy san'atda ham mashqlar qilib turgani, hatto Husayn Boyqaroning suratini chizgani haqida manbalar guvohlik beradi. Leonardoning sirli tabassumi (Mona Liza) kabi Navoiyning o'z qo'li bilan chizgan zanjirband sher surati ham mana besh asrdiki, takror-takror munozaralar manbayiga aylanib keladi. Bu buyuk zot musiqa ilmida ham noyob iste'dod sohibi bo'lib, bir qancha kuy- lar ijod qilgan. Shuningdek, bosh me'mor sifatida o'z mablag'i hisobidan ko'prik, tegirmon, hammom, bog', maqbara, masjid, shifoxonalar barpo etdi, ariqlar qazdirdi. Bunyod etgan inshoot- larining aksariyati tarhini o'zi chizdi, tuzatdi.

Xuddi shunday Hazrat IT sohasini ham oldindan ko'ra bil- gan. Mana, 580 yildirki bu asarlar dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda.

“Farhod va Shirin” dostonida, bugungi kun robototexnikasi va XX asrning buyuk ixtirolaridan biri — robotlar haqidagi satrlarga ham ko'zimiz tushadi:

*Bo'lur darvoza ichra oshkoro,  
Temur jismiki qilmish paykar oro.*

*Erur odamg'a monand-u mushobih,  
Ilgida temurdan yoy qilib zih.*

*Va lekin ushbu paykar roy to farq,  
Bo'lib o'tdek temur o'rchin aro g'arq.*

Ma'nosi shunday: *“U odamga juda ham o'xshar, qo'li- da o'tkir o'q tortilgan temir yoyni ushlab turar edi. Bosh- dan-oyoq sovutga o'ralgan bu temir odam ich-ichidan yonib turardi”.*

Navoiyning o'z davri uchun g'ayrioddiy bo'lgan qu- ril- malar haqida ham bashoratli ijodiy timsollari mavjud.

Navoiy ijodida behisob baland minora ustiga o'rnatilgan bugungi parabolik va sputnik antennalariga o'xshash qu- ril- malar, dunyoning narigi chekkasidagi inson bilan to'g'ri- dan to'g'ri bir-birini ko'rib turgan holda (vebkamera orqali) muloqotda bo'lish, kompyuter, internet, kishining may ich- gan-ichmagani aniqlab beradigan vosita, kibernetika hamda yana boshqa turli g'ayrioddiyliklar xususidagi farazlar shular jumlasidan.

Yana bir qancha XXI asr odamlari tasavvur doirasidan ham tashqarida bo'lgan antiqa timsollar, farazlar uchraydiki, hayratlanmay iloj yo'q. Agar ularning muqobilini bugun ham uchratmasak, buni zamonaviy fan va texnikaning rivojlanishi davomida bilishimiz mumkin.

Alisher Navoiyning oltin merosi millat ruhini tarbiyalay- di, uning ijodini qomusiy ravishda tadqiq va tahlil etishga ayniqsa yoshlarda rag'bat uyg'ota olish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Dilafro'z RAVSHANOVA,  
Uchquduq tumanidagi  
18-maktab informatika fani  
o'qituvchisi

## Tajriba

# Inglizcha she'r o'qishning beshta foydasi

Ingliz tili darslarida she'rlardan foydalanishga odatlanganman. She'riyat o'qish, yozish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga chet tilini o'rganishga ham yordam berishini quyidagi besh maqsad bilan bog'laymiz:

O'qish, gapirish va eshitish ko'nik- malarini shakllantiradi.

O'quvchilar turli shakldagi matn- larni, asosan she'rlarni baland ovozda ifodali qilib o'qishi va tez-tez takrorlashi nutqni rivojlantiradi. Qolaversa, ting- layotgan o'quvchi ham so'zlarning talaf- fuzi, ma'nosiga e'tibor beradi.

► Lug'at va tilni o'rgatadi.

She'riyat o'qituvchilarni maxsus metodik qurol bilan ta'minlaydi: bu shunday qurolki, u bir nechta qismga bo'linishi mumkin. She'rdagi so'zlar ba'zida juda ta'sirli qo'fiyaga ega bo'lganligi sabab o'quvchilarning xotirasini mustahkamlash uchun qo'l ke- ladi. She'r yodlash orqali o'quvchining xotirasida ko'p so'zlar saqlanib, lug'at boyligi oshib boradi.

► Yozishga ilhomlantiradi.

Bola qanchalik ko'p she'r o'qisa, ijod qilishga ham qiziqishi ortadi. She'rda so'zlar bir-biri bilan shakl va kontekst yaratish maqsadida birikadi. Unda biz

ma'no ta'sirli va g'aroyib bo'lishi uchun so'zlarni to'g'ri tanlashni o'rganamiz.

► Kreativ fikrlashga ruhlantiradi.

She'r — bu hissiyotlar ifodasidir. Shu bilan birga she'riyat bolaning ijtimoiy va ruhiy qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsata- di.

► Mutolaaga muhabbat ortadi.

Ushbu usuldan 7-8-sinflarda ingliz tili fanida foydalanaman. O'quvchi- lar ham har bir bo'lim mavzusiga oid she'rlarni topib kelishadi. Bu ishtiyok ularning tili ravon bo'lishiga yordam bermoqda. Masalan, Unit 3 (3-dars)dagi “Sport” (Sport) mavzusiga mos “Healthy living” (“Sog'lom yashash”) she'ri o'quvchilarni ta'sirlantiradi:

I hope to fit  
Healthy and strong  
I want to enjoy life  
And live it long  
Men tetik va sog'um,  
Kuchli bo'lishga umidvorman.  
Hayotdan rohatlanib

uzoq yashashni xohlayman.

I want to do exercise  
At least once a week  
Also be careful  
Of what I do eat  
Badantarbiya qilishni istayman  
kamida bir marta haftasiga.  
Hamda e'tiborli bo'lishni  
Yeyayotgan taomlarga.  
At times it be easy  
And others it be hard  
But I won't just stop  
As it gets hard  
Ba'zida bu oson,  
ba'zida esa qiyin.  
Ammo shunchaki to'xtatmayman,  
u qiyinlashgan sari.

Bolalar chet tilida o'qishni o'rgani- shi bilanoq ularga mutolaa uchun moti- vatsiya berish muhim. Bu imkoniyatga she'r yodlash orqali ega bo'lish mum- kin. Chunki o'qish orqali bolalar yangi- cha dunyoni kashf etishadi. O'quvchilar dastlab kitoblarning mazmunan sodda- rog'ini tanlashi lozim. She'rlar va ki- toblar mutolaasi bolalarga quvonch va xush kayfiyat ulashadi.

Ijbat RAJABOVA,  
Tuproqqal'a tumanidagi  
2-maktabning oliy toifali  
ingliz tili fani o'qituvchisi

## O'qituvchi ijodidan

Matematik she'rlar

### VARRAKLAR QANCHA?

Kunlar isib boshladi,  
Bahordan kelar darak.  
Xolmo'min ham kirishdi  
Yasamoq uchun varrak.  
U juda ham qo'li gul,  
Chaqqongina yosh usta.  
Bunda kerak mohirlik,  
Hamma gap emas kuchda.  
Bir soatda yasadi,  
Varraklardan uch dona.  
Ishini davom etdi,  
Ikki soat u yana.  
Xolmo'minni atashar  
Varrakchi deya barcha.  
Hisoblang-chi, ustaning,  
Varragi bo'ldi qancha?



### YONG'OQLAR QANCHA?

Umiddonda yong'oq ko'p,  
Serhosiylar yong'og'i.  
U juda ham saxiydir,  
Tinglang endi bu yog'in.  
To'rt do'stiga to'rtadan,  
Yong'oqlarin ulashdi.  
To'rtta qolib o'zida,  
Yong'oq urar o'ynashdi.  
O'yinda Islom mergan,  
Uch o'rtog'da qolmadi.  
Umid ham qolishmaydi,  
Islom yuta olmadi...  
Barcha yong'oq Umidda,  
Yig'ildi qarang qayta.  
Umid takror ulashar,  
Do'stlari rahmat aytar.  
Qani kim hisobladi,  
O'ynalgan yong'oqlarni?  
Ularga qiling havas,  
Bor bo'ling inoqlardek.  
Yakshanbada besh o'rtog',  
Yong'oq o'ynashdi ancha.  
Toping, Umid o'yinga,  
Yong'oq keltirgan qancha?

### KO'CHAT QANCHA?

Bahorning ilk kunida  
Ko'chat ekdik hovliga.  
Olmalarni men ekdim,  
O'riklarni Xolida.  
Dadam bo'ldi bizga bosh,  
Bog'bonimiz bo'lsakda yosh.  
Singlim ekdi uch o'rik,  
Yordamlashdim-da men ham.  
Mening beshta olmamga,  
Yordamchi singlim, dadam.  
Gapim cho'zildi ancha,  
Ekilgan ko'chat qancha?

### NECHA SO'M?


Salimaning onasi  
Sotuvchidir do'konda.  
Savdosi juda yaxshi,  
Ayniqsa, tushum nonda.  
Bugun qarang, tushgacha  
Non sotdi ikki yuzta.  
Hali savdo bo'ladi,  
Noni bor yana yuzta.  
Toping, zukko bolajon,  
Jami bo'lgan nechta non?  
Har donasi ming so'mdan,  
Noni arzon, shirin ta'mi.  
Yana aytimg, tushgacha  
Necha so'm tushdi jami?

Ro'zimurod BOLQIYEV,  
Mirzacho'l tumanidagi  
10-maktabning boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi

## "Ilhom" mukofoti

# "Quyoshliq istasang, kasbi kamol et..."

Ulkan o'zgarishlar amalga oshayotgan O'zbekistonimizda barcha sohalariga, shu jumladan, ma'naviyat va adabiyot sohasiga ham munosabat tubdan o'zgariganiga barchamiz guvohmiz. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev prezidentlik lavozimining ilk kunlaridanoq ma'naviyat va adabiyotni rivojlantirish uchun keng ko'lamli islohotlarni amalga joriy qildi.



Chunonchi, yurtimiz faxri bo'lmish Milliy bog'imizda Yozuvchilar uyushmasi uchun zamonaviy, barcha qulayliklarga ega koshona qurildi, elimizning ardoqli mutafakkir va adiblari xotirasini e'zozlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib, muhtasham Adiblar xiyoboni barpo qilindi, u tez fursat ichida yurtdoshlarimizning sevimli ziyoratgohiga aylandi. Shuningdek, ayni bog' hududida Alisher Navoiy nomidagi ijod maktabi, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining yangi binosi, yangi Milliy drama teatri binosi, yaponiyalik arxitektor Tadao Ando loyihasi asosida Davlat san'at muzeyining namoyishlari kompleksi, yosh olimlar, yoshlar va kitob ixlosmandlariga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan ulkan kutubxona binosi barpo etish ishlari ham izchillik bilan davom ettirilmoqda.

Ulug' mutafakkirlar va ijod kishilarini e'zozlashday ulug' niyat yo'lida barpo etilgan bu dargohlar mohiyatan ijodga, yaratuvchilikka, bunyodkorlikka qo'yilgan shon-sharaf timsollaridir, desak xato bo'lmaydi. Aql-zakovat tan-tanasi, vatanparvarlik va yurtga sadoqat timsollari davlatimizning yuksak e'tibori tufayli mana shunday e'zozlanmoqda va sharaflanmoqda. Ayni chog'da bu - adolat va qadr-qimmat mezonlarining zamonaviy timsollaridir.

Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy qilingan va Adiblar xiyoboni ochilishiga bir yil to'lishi munosabati bilan egalariга topshirilgan "Ilhom" mukofoti - shunday xayrli ishlarning uzviy davomi bo'ldi. Oliy tashabbusning ijrosini ta'minlash maqsadida o'tgan yilning o'zida Vazirlar Mahkamasining "Ilhom" mukofotini ta'sis etish to'g'risida" qarori qabul qilindi. Ushbu mukofot shoir va yozuvchilar hayoti va ijodini

o'rganish, ularning asarlarini tarjima qilish, shu asosda tadqiqotlar o'tkazish, kino va sahna asarlari yaratish kabi ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijodiy jarayonlarda eng yuqori natijalarga erishgan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan va faoliyat yuritayotgan yoshlarga berilishi belgilandi.

Ilk bor tashkil etilgan tanlovning saralash bosqichi oliy ta'lim muassasalari doirasida o'tkazilib, unda barcha oliy ta'lim muassasalaridan o'n mingdan ortiq talaba-yoshlar, murabbiylar ishtirok etdi.

Asosiy bosqich respublika miqyosida bo'lib o'tdi. "Ilhom" mukofoti tanlovining Respublika bosqichi uchun 82 ta oliy ta'lim muassasasidan 182 ta ijodiy ish qabul qilindi.

Shu o'rinda mukofotlangan yurtdoshlarimiz qaysi mehnatlari evaziga bunday taqdirlashga sazovor bo'lganiga to'xtal-sak. Bosh mukofot egasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich magistranti Akrom Malik millatimiz faxri hazrat Alisher Navoiy bobomiz qalamiga mansub "Hayrat ul-abror" dostoni matn, sharh, nasriy bayon, lug'at" kitobi, Alisher Navoiy ijodi va asarlari

Ushbu mukofot shoir va yozuvchilar hayoti va ijodini o'rganish, ularning asarlarini tarjima qilish, shu asosda tadqiqotlar o'tkazish, kino va sahna asarlari yaratish kabi ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijodiy jarayonlarda eng yuqori natijalarga erishgan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan va faoliyat yuritayotgan yoshlarga berilishi belgilandi.

tahlili yuzasidan xorijiy va mahalliy ilmiy jurnal, konferensiyalarda 10 dan ortiq maqolalari, Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiga ilmiy-nazariy qarashlari aks etgan video chiqishlari, "Yoshlar" telekanali, "Hilol-nashr", "Kun.uz", "Islom.uz", "Azon.tv", "Tarjumon media" ijtimoiy tarmoqlarida faol targ'iboti, Alisher Navoiy "Xamsa"sini fenomenologik tadqiq etish muammolari (Hamd va munajat boblari misolida) mavzusidagi dissertatsiya ishi uchun munosib deb topildi.

Ikkinchi o'ringa Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasi — O'.Ne'matova, Z.Qurbonboyeva, M.Muhammadova, D.Rahmonova, M.Toshtemirovadan iborat ijodiy jamoa va ularning Ogahiy she'rlarini hozirgi o'zbek tilida sharhlash yo'nalishi bo'yicha yaratgan "Ogahiyning badiiy kashfiyotlari" tadqiqoti va O'.Ne'matovaning "Orzular shahri" qissasi, Ogahiy lirik merosini arab, ingliz va rus tillariga o'girish yo'nalishi bo'yicha yaratgan "Ogahiy ash'orlari arab tilida" tadqiqoti hamda M.Tursunaliyevaning "Hikmat va taqdir bitigi" ilmiy risolasi, O.Turdiyevning o'zbek mumtoz merosini yapon tiliga tarjima qilish yo'nalishida yaratgan "Ogohnoma yapon tilida" tadqiqoti uchun sazovor bo'ldi.

Butun mamlakat bo'ylab o'tkazilgan ushbu tanlovda hududlarda yashab, ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan yosh iste'dodlar ham chetda qolgan yo'q, albatta. Farg'ona davlat universiteti 3-bosqich talabasi Qobiljon Shermatov "Qishloqjonim" nomli she'rlar to'plami va boshqa adabiy-badiiy asarlari uchun 3-o'ringa munosib deb topilgan bo'lsa, Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibasi Malika Palimbetova xorijiy va mahalliy ilmiy jurnal, konferensiyalarda 40 dan ortiq ilmiy maqolalari, "Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari" nomli ilmiy maqolalar tanlovida "Eng yaxshi ilmiy maqola" g'olibasi bo'lgani uchun loyiq ko'rildi.

Rag'batlantiruvchi o'rinlar borasida ham shunday so'zlarni aytish mumkin. Urganch davlat universiteti talabasi, Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohibi Akbar Otayev o'zbek adabiyoti namoyandalari ilmiy-ijodiy merosi tadqiqiga

oid 40 ga yaqin ilmiy maqola va tezislar, "Ontolingvistika" nomli uslubiy qo'llanmasi (Sh. Aqmanova bilan hammualliflikda), "O'zbek tili antroponimlarini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari" nomli ilmiy-uslubiy qo'llanmasi (f.f.n. Ravshan Xudoyberganov bilan hammualliflikda), "Sog'inch satrlari" she'riy to'plami uchun munosib deb topildi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi Madina Qahhorova "Muqimiy merosi.uz" platformasi va mobil ilovasini ishlab chiqqani va "Qvant" mukofoti sovrindori bo'lgani uchun, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti jamoasi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatiga doir "O'zbekkino" milliy agentligi bilan hamkorlikda Bobur haqida "Yo'lbarsning tug'ilishi" nomli badiiy film va "Yo'llar izidan" nomli hujjatli filmlar, "Bobur asarlari bilimdoni" ko'rik-tanlovlari, "Bobur avlodlari" nomli drama to'garagi, "Yosh boburshunoslar" kursant shoirilar to'garagi tashkil etgani uchun, Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi Farhod Nizomov "She'riy san'atlar tahlili", "Xalq dostonlarini o'rganish yuzasidan metodik qo'llanma", "O'zbek adabiyoti"dan mustaqil ishlarni tashkil etish", "Adabiyot darlarida savol-topshiriqlar ustida ishlash" kabi metodik qo'llanmalar muallifi bo'lgani uchun, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Nihol" talabalar teatr studiyasi jamoasi N.Shodmonovning "Nuh kemasi" asari asosida sahnalashtirilgan spektakli, Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" asarini sahnalashtirgani, Oliy ta'lim muassasalari talabalar teatr studiyalari festivalining final bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritgani uchun, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi Xonzodaxon Jamolova (marhuma) esa sportning karate turi bo'yicha "1-dan" qora belbog' sohibi, "Baxt tongi" nomli she'rlar kitobi, "Respublika lider qizlar" festivalining raisi sifatidagi faoliyati uchun munosib deb topildi.

Hazrat Alisher Navoiy bobomiz boshchiligidagi bilim va zakovat majlislari ruhida saf tortgan ma'rifat va ma'naviyat namoyandalari minnatdor avlodlar tomonidan shunday shon-sharaf ko'rsatilar ekan, ularning teran adabiy merosi, barchaga namuna bo'la oladigan hayoti va ijodini o'rganib, targ'ib qilgan yoshlarimiz ham davlatimiz e'tirofiga sazovor bo'lgani faxr uyg'otadi. Mazkur yuksak mukofotning nomi "Ilhom" deb nomlanishida alohida mazmun mujassam. Avvalo, bunday ulug' ishlar xayrli niyatlarisiz va ilhomsiz bo'lmaydi, albatta. Ularning hukumat tarafidan rag'batlantirilishi esa, yurtdoshlarimizni, ayniqsa yoshlarimizni ana shunday ulug', xayrli ishlarga ilhomlantirishi, shubhasiz.

Isajon SULTON,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi

Afsus

## “Ko‘rkam” yigitlar

Yaqinda bir gap eshiddim: “koreys yigitlari bo‘yanadi, ular bundan uyalishmaydi, aksincha faxriyati”. Ishonmadim. Lekin “Ko‘rkam yigitlar” nomli koreys filmiga bexosdan ko‘zim tushgach, hayratda qoldim, to‘g‘risi. Yuziga upka, qoshiga qalam surtib, kamiga qulog‘iga zirak ham taqib olgan bu “yigitlar”ni ko‘rib, “erkak” deyishga tilim bormadi. Birdan o‘zbek o‘g‘lonlari ham ulardan andoza olmayaptimikan, deb cho‘chib ketdim.

Bizga ma‘lumki, botirlik, pahlavonlik, bir so‘zlik o‘zbek o‘g‘lonlari qon-qoniga singib ketgan. Bu xislatlar o‘zbek yigitlarining qoni-da bor. Ularning tarbiyasida Sharqqa xos bir qancha fazilatlar ham ko‘rishimiz mumkin. Lekin hozir ahvol qanday? Yigitlar tarbiyasi, ularning ota-onaga munosabati? Katalarga salom berish tugul, “humat qilish” tushunchasini unutilib qo‘yganlar, afsuski, ko‘plab topiladi. Aytib o‘tish kerakki, juda ko‘p yigitlar qulog‘iga naushnik taqib, atrofidagi hasa suyanib turgan bobosi tengi chol-u kampirini ham ko‘rmay yoki ko‘rib ko‘rmaslikka olishadi.

Ijtimoiy tarmoqlar bugun jamiyatning ko‘zgisiga aylandi-qo‘ydi. Unda paydo bo‘layotgan videolarda bir gala qizlar o‘zaro yulishib, mushtlashib, so‘kinayotgan bir vaqtda yigitlar bunga barham berish o‘rniga tomoshabin bo‘lib, videoga olib turgani, keyin

esa bu videolarni tarqatish bilan o‘zlarini kun qahramoniga aylantirayotganini ko‘ryapmiz. Ojiza ayollarning xo‘rlanishini videoga olib tarqatayotgan erkaklar ko‘payib ketayotganini o‘ylab, ular ko‘zimga ayollardek bo‘yayib olgan koreysning “ko‘rkam yigitlar”idan ham jirkanch bo‘lib ko‘rinib ketdi. Afsus, ular ham ertaga bir oilaning boshiga, bir qancha farzandning otasiga aylanadi.

Shu o‘rinda yosh bo‘lsam-da bir xulosaga keldim. Onalar o‘g‘il farzandlarining nafaqat yaxshi o‘qishi, hayotda o‘z o‘rnini topishiga, balki onasidan tashqari jamiki ayollarni hurmat qilish, qadriga yetish hissini ham to‘g‘ri shakllantirishlari va har qanday vaziyatda o‘zbek o‘g‘loniga mardlik, odillik, g‘urur yarashishi kerakligini uqtirishlari kerak.

Dilafro‘z ABDURAJABOVA, ToshD’TAU talabasi

Tuyg‘u

## Qiyomatga qolgan diydor

Ba‘zan o‘ylab qolaman, agar otam bo‘lganida hammasi o‘zgarib ketarmidi? Balki hayotimda qayg‘uli kunlarim ham kamroq bo‘lardir. Esimda, bundan 2-3 yillar avval otam xayolan biz bilan ekanligini tasavvur qilardim. Hatto, uni qaytib keladi, deya ishonardim. Bugun uyquga yotaman, erta tongda hammasi o‘zgaradi. Uyg‘ansam dadam bo‘ladi, keyin biz baxtli hayotimizda birga yashaymiz. Har tun shu ilinjida uyquga

yotardim. Tongda esa o‘sha-o‘sha hech nima o‘zgarmas, onamning men va ukam uchun o‘zini o‘qqa-cho‘qqa urib, ham ota, ham ona bo‘lishga harakat qilayotganini ko‘rardim. Yoshligimga borib yoki mo‘jizaga ishonganim sababli bugun emas, ertaga men xayolimga shirin hayotda ko‘z ochaman degan umidda yashardim.

Mana, 19 ga kirdimki, bu umid so‘ngani yo‘q. Qiz bola uchun otaning tarbiyasi, uning

Ta’kid

## Ustozning maqtovi — omad, koyishi-da omad!

Maktab ostonasidan ilk kirib kelgan kunimizni yaxshi eslayman. Garchi bunga ko‘p yillar o‘tgan bo‘lsa-da, bu kun xotiramda yaxshi saqlanib qolgan.

Biz kichikintoylarni maktabning salobati bosardi. O‘qituvchimiz savollariga javob berishga hayajonlanib, boshilib qoldik. Go‘yo maktab bir katta, sirli mamlakat edi-yu, biz bunda o‘zimizni bir zarradek his qilardik. Hatto xonalar, yo‘laklar bo‘ylab adashib qolishdan qo‘rqardik. Shunda bizga bir farishta — ustoz yordamga keladi. Ha, u haqiqatan ham farishtadek yonimizda paydo bo‘ladi. Dalda beradi, qo‘limizdan tutib yozishga, harflarni qo‘shib o‘qishga, to‘g‘ri so‘zlashga, fikrimizni qo‘rqmay ifodalashga o‘rgatadi. Kamchiliklarimizni yashirishga, to‘g‘irlashga urinadi. U bizni asta-sekin ilm gulzoriga olib kiradi. Tun-u kun biz uchun mehnat qilayotganini anglay boshlaymiz. Unga mehr qo‘yamiz. Ustozning gapini qayt qayt aytiladi. Uning “barakalla” degan e’tirofini eshitish uchun qancha harakat qilamiz, tirishib, tirishamiz. Shu tariqa katta bo‘ldik, ulg‘aydik. Ustozlarimiz ko‘paydi. Ulg‘ayganimiz sari “quloqsiz”ga aylana boshlaymiz. Ustozlarga ba‘zan gap qaytaramiz, ba‘zan behurmatlik qilib qo‘yamiz. Koyisa jahlimiz chiqadi, ursa janjal ko‘taramiz. Nega? Nega shunday o‘zgarib ketamiz? Axir kechagina uni onamizdek ardoqlardik, yordamiga muhtoj, e’tirofiga ilhaq edik-ku! Unutdikmi hammasini? Ana, kimgilardir ustozining ustidan arz qilib onasiga bordi, onasi janjal qilib, maktabga kelib, hammaning oldida ustozni haqorat qildi, yana bu kamlik qilgandek, holatni videoga olib, ijtimoiy tarmoqlarga tarqatayпти. O‘sha ona bir necha



yil oldin bolasining o‘qishi sustligini aytib, ustozga “o‘zingiz yaxshilab shug‘ullaning, iltimos, men eplolmayapman” demaganmidingi? Ana, yana kimdir o‘qituvchining turtganidan arz qilib otasiga boribdi. Ota esa maktabga kelib, o‘zi maktablarda tobora kamayib ketayotgan erkak o‘qituvchini do‘pposlabdi. O‘sha zo‘ravon ota ustozning qo‘lida harf tanimaganmidingi?! Nega, ustozning ulug‘ligini hamma unutyapti. Xokisor, fidoyi, kekkayishni bilmaydigan, kamtar bu insonlarning nega qadriga yetmayapmiz?!

Ustoz! Uni shunday e‘zozlashimiz kerakki, toki urishganida yuzimiz yerga qarasin, “ikki” qo‘yganida o‘zimiz tugul ota-onalarimizning ham tashvishi ortsin, turtganida aybimiz borligini his qilaylik va bundan uyalaylik, maqtaganida eng omadli insonga aylanaylik! Ammo zinhor unga qo‘l ko‘tarmaylik, behurmatlik qilmaylik!

Dilafro‘za HAMDAMOVA, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 279-maktab o‘quvchisi

### Farzand sifatida ota-onangizni rozi qildingizmi?

Tabiatni onaga mengzaymiz. U haqda olam-olam maqtovlarni soatlab gapiramiz. Axir, tabiat vujudidagi bor ne‘matini tuhfa etadi: yediradi, ichiradi, havo beradi. Ammo hech o‘ylab ko‘rdikmi? Tabiat bizga berayotgan ne‘matlar hadyami yoki qarz? Biz tabiat in‘omini qadrlayapmizmi?!

## Tabiat ham aza tutadi

Ona farzandini to‘qqiz oy qornida asrab, o‘zi yemay-yediradi, bir shaxs sifatida insonga nima kerak bo‘lsa, hammasini beradi. Onangizdan hech so‘rab ko‘rganmisiz: “Ona, menga qilgan yaxshiliklaringiz qazmimi?”, deb. Yo‘q, chunki onada qarz bo‘lmaydi. Tabiat ham shunday, u borlig‘idagi narsalarni bizga onaday mehribonlik bilan shunchaki beradi, hech qachon hech narsa talab qilmaydi. Balki talab qilmaganligi uchundir, uni ba‘zan toptaymiz yoki toptashlariga yo‘l qo‘yib beramiz.

E‘zoza XO‘JAYOROVA, O‘zJOKU talabasi

borligi qanchalik ahamiyatli. To‘g‘ri, onam hech nimadan bizni kam qilmadi. Ammo men onam uchun ukamning o‘rnini bosa olmaganim kabi onam ham otamdek bo‘la olmadi. Otasizlik, bilasizmi uning nima ekanligini? Har inson yoki har bir narsadan mehr qidirish. Yarim ko‘ngil uchun mehr-muhabbatga tashnalik. Siniq ko‘nglim bilan atrofga boqib, og‘riqlarimni tabassum ortiga berkitaman. Qalbimda esa o‘rnini hech narsa bilan to‘ldirib bo‘lmaydigan bo‘shliq ila yasharkanman, atrofimda dadasi haqida faxr ila so‘zlayotganlarni tinglab qalbm o‘ksinardi. Ayniqsa, tengdoshlarim oilasi, otasi haqida gapirganda beixtiyor jim qolardim. Yoshligimda ham hamuzki oilam mavzusida vazifa bajarishni, gapirishni istamasdim. Axir, oila ota-onalari to‘la-to‘kis. Men esa kemtik oilam haqida so‘zlagim kelmaydi. Ojizligimni kimgadir ko‘rsatishni istamasam-da, xilvat joy topdim deguncha ko‘zimga yosh kelardi. Ammo hayot tashvishlari bilan qiynalgan onamni yanada qiynagim kelmasdi. O‘ksik qalbmni otam bilan o‘tgan go‘zal kunlarim yodi ila ovutib kelaman. Ularni menga bo‘lgan cheksiz muhabbatini xotirlayman.

Marjona SHOHIMARDONOVA, O‘zDJTU talabasi

### Zamonamiz qahramonlari

Tabiatdan olinib palitraga quyilayotgan serjilo ranglar oppoq qog‘ozda sehirli bir jilvani aks ettiradi. Tasviriy san‘atning shunday bir yo‘nalishi bor: koinotning cheksizligi, borliqning sir-sinoati kichik bir hajmga ega bo‘ladi, bu — miniatyura. “Mo‘jaz surat” degan ma‘noni anglatuvchi miniatyurani tushunish uchun Kamoliddin Behzod haqida eslamaslikning iloji yo‘q.



## Ma‘rifat



## “Behzod” maktabida mo‘jizalar

Behzod mo‘yqalamiga mansub suratlarida yuksak kamolot va murakkab hissiy kechikmalar ko‘zga tashlanadi. Uning asarlari tasvirning haqqoniyiligi va jozibadorligi bilan kishiga zavq beradi. Ana shunday ishlardan biri, mo‘jizakor qo‘llar egasi Behzod Jo‘raboyev 7 ta xalqaro festivalda ishtirok etdi, tasvirlar ustida ishlab, o‘zgaracha an‘anaga ega zamonaviy chizgilar muallifiga aylandi.

Ushbu “O‘zbek milliy to‘yi” asari uslubii Behzod maktabiga xos. Markazda palak ostida kelin-kuyov, ularning atrofida ayollar, erkaklar, bolalar, zozanda va oshpazlar, barcha tashrif buyuruvchilari milliy libosda tasvirlangan. Har bir personajlar guruhi jonli harakatda bo‘lib yuqori kayfiyatda ishlangan. Kartina yuqori qismida oq kabutarlar parvoz qilayotganini ko‘rish mumkin. Bu ramziy ma‘noga ham ega. Oq kabutar — tinchlik belgisi sanaladi. Chinor — uzoq umr, uzum — serfarzandlik, majnuntol — oila va yoshlik, terak — bunyodkorlik kabi timsollarga ega.

Suratni yakunlash ba‘zan juda mushkul kechadi. Rassom butun boshli asarni birgina chizgi bilan buzib qo‘yishdan cho‘chiydi. Shu bois uni devorga o‘girib qo‘yib yangisini boshlaydi. Asari haqida unutilib, oradan vaqt o‘tgacha unga yangitdan qaraganida hali qancha chala joylari borligi yaqqol ko‘rinadi. Kartinani maromiga yetkazish uchun ba‘zida ikki-uch chizgi kiffoya.

Ijodkor biron ijod namunasini yaratar ekan unga birinchi navbatda o‘zining ruhi, qalbi, hayotining ma‘lum bir qismini qo‘shib tasvirlaydi. Deyarli 80 foiz ijodkorlar unga o‘zligini beradi. Tomoshabin uchun oddiy, maishiy ko‘ringan tasvirlar ohangida aslida rassomning qalbi, ruhi, hayot haqidagi falsafasi joy oladi. Agar ijodkor unga biron-bir

falsafani, o‘zligini qo‘shmas ekan, demak bu tasvir jonsiz va ifodasizdek ko‘rinadi, — deydi Behzod Jo‘raboyev.

Serqirra ijodkor o‘z ijodida faqatgina miniatyura bilan cheklanmagan. Ijodkorning sehirli barmoqlari loy va yog‘ochga tegsa bas! Uni kerakli shaklga keltira oladi. Behzod Jo‘raboyev ijodidan milliy qo‘g‘irchoqlar ham o‘rin olgan. Ikki yildan buyon milliy qo‘g‘irchoqlar yasab kelayotgan ijodkor bu ish ustida ko‘p izlandi. Har bir hududga mos libos, detal-lar, paranjidan to zargarik taqinchoqlarigacha, va hatto oyoq kiyimlarigacha alohida o‘rganilgan. Mukammal darajada yasalgan qo‘g‘irchoqlarning loy holidan tortib kiyim, bezaklari, zargarlik ishlari, soch turmaklarigacha Behzodning o‘zi mualliflik qiladi. Sayyohlar tomonidan katta qiziqish bilan xarid qilinayotgan qo‘g‘irchoqlardagi noziklik, detallarning aniqligi tomoshahanga yanada zavq bag‘ishlaydi.

“Karving mo‘jizalari” shaxsiy ko‘rgazmasi asoschisi u. Respublika oshpazlar uyush-maschi tomonidan o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovda birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Ijod kishisi qo‘lida mo‘yqalammi yoki pichoq, u albatta biron asarni yaratadi. Bu asar panogaga tushiriladi yoki boshqa yuzaga, bu ijodkor uchun muam-moli vaziyat emas.

Aslida rassomning chizgilar qog‘oz yoki panogaga ishlangani bilan emas, nurga intilayotgani bilan ahamiyat kasb etadi. Ulardan bo‘yoq hidi emas, betakror qalb taro-vati, ko‘ngil ifori taralsin.

Kamola MIRZAJONOVA, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn instituti talabasi

Kuzatuv

## Bozor poyezdga ko‘chdi yoxud “Vagonlavha”

Poyezdga birinchi marta qachon chiqqaningizni eslaysizmi? Men eslayman, aniqrog‘i hech yodimdan chiqmaydi... Baxtim kulib, talaba bo‘lgach, Toshkent sari yo‘l oladigan bo‘ldim. “Toshkentdan Xorazmgacha 1100 kilometr” deb qo‘shiq aytgan akamiz ham shu kilometrlar azobini menday totmagan bo‘lsa kerak. Chindan ham yo‘l uzoq.

Ota-onam ko‘p o‘ylashdi: poyezdda jo‘namatizmi yo taksida? Birinchi marta yolg‘iz ketayotganimni hisobga olib, poyezdda bilet olishdi. Endigina maktabni tugatgan 18 yoshli qizini katta shaharga jo‘natish osonmasligini vokzalda xayrlashayotib, his qildim. Poyezdga minib, o‘rnimga joylashib ham oldim. Taraqa-turiqdan boshim og‘rib, qachon uxlaganimni bilmay qolibman.

Bir payt oyog‘imdan kimdir turtilib turibdi. Cho‘chib uyg‘andim. Qarasam, qorachadan kelgan, to‘laroq ayol qo‘lida to‘rtta sumka ko‘tarib, ko‘zlarini katta ochganicha, “Pulni bermasdan ux-lavoribsi-z-a”, dedi. Nima deyotganini tushunmay qarab turaverdim. — “Bermaysizmi pulni, — dedi, boya shokolad bilan kofe olib qoluvdiniz-ku, pulini qaytib o‘tgan-imda olaman degandim. Bir uxlab turib eslolmayapsizmi?” Shokolad, kofe olish u yoqda tursin, bu ayolni birinchi marta ko‘rib turibman. “Qanaqa shokolad, kofe haqida gapiryapsiz?” — dedim. Ayol poyezd-ni boshiga ko‘tarib, baqira ketdi. “Bironing haqidan qo‘rqmayisizmi, bolalarimning rizidan qityaysiz, uyalmaysizmi? Norasidalarining haqi uradi sizni”. Ichimdan nimalar o‘tganini o‘zimga ayon. Atrofdagilar ham menga xuddi o‘g‘riga qaragandek qarashardi. Yaxshiyam, baxtimga o‘ziga o‘xshab butun bozorni katta sumkalariga joylashtir-gan hamrohi kelib qoldi. Nimadan baqir-chaqir bo‘layotganini bil-ganidan keyin qah-qah otib kuldi va “Hoy, sendan narigi vagon-dagi qiz narsa olgandi-ku, nimaga buni talayapsan”, — dedi. “A narigi vagonidmi, yana adashdimmi?” (menimcha, ko‘p adashib tursa kerak) deb talmovsiray boshladi: “Voy, uzr sizni boshqasi bilan adashtir-ibman”, — dedi-da hamrohining ortidan ketaverdi. Endi gapirishga og‘iz juftlayotgandim, gap-so‘zimni eshitmasdan ko‘zdan yo‘qoldi. (Qanday qiyofaga kirishimni tasavvur qilolmadim, chamamda). Men bir chekkada o‘ylanganimcha qolaverdim.

Fikr

## Ota-onaga hurmatning chegarasi bormi?

“Qalban mehnatkash inson”. Bu iboraga ilk marotaba yozuvchi Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari mutolaasida duch kelganman. Qalban mehnatkash inson kim?

U o‘zini shunday botiniy, murakkab savol-larga tutadiki, agar o‘zida javob topa olmasa, aslo xotirjam bo‘lmaydi. Shuning uchun ham nodon kimsalar loqaydlik bilan ish qiladilar, ishni yaxshi uddalaganlarida ham majburiyat yuzasidagina bajaradilar.

Qachon o‘zingizni savollarga ko‘mib tashladingiz? Farzand sifatida ota-onangizni rozi qildingizmi? Ota-onalar bolam hech kimdan kam bo‘lmasin deb o‘zi bahramand bo‘lmagan sharoitlarni farzandiga muhayyo qiladi. Ular shunga majburiymi? Butun umr o‘z orzu-havaslaridan voz kechib, farzandlari kelajagi uchun mehnat qilishlari to‘g‘rimmi? Hatto bulbul ham bola ochganidan keyin say-rashni bas qilib, polaponlariga yemish tashish bilan ovora bo‘lar ekan. Ota-onalardan oxirat-da farzandingga o‘zindan keyin nima meros qoldiridigga deb so‘raladi. Xitoy donishmand-lari shunday hikmat aytishgan ekan: “Agar bir yil foyda olishni istasangiz, sholi eking. Agar o‘n yil foyda olishni istasangiz, daraxt eking. Agar yuz yil foyda olishni istasangiz, farzand tarbiya qiling”. Bizning farzandlik burchimiz ham ota-onamizga yaxshilik bilan javob qa-ytarishimizdadir. Hatto safarga ham ularning roziligisiz chiqmaslik lozim. Agar ota-onasi ish buyursa-yu, sizga bu malol kelsa, qaysi marta-bada bo‘lsangiz ham dunyodagi eng razil inson siz bo‘lasiz. Ijtimoiy tarmoqlarda 100 million like uchun onasini o‘ldirishni ta’kidlagan tiktoker butun ommaning g‘azabiga uchradi. “Koinot cheksizligiga shubham bor, insonning ahmoqliqiga shubham yo‘q”, deb ta’kidlagan

edl Albert Eynshteyn. Yoshlarimiz zamondan ortda qolmasliklari uchun davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Tiktoker-larni to‘g‘ri yo‘lga solishga ko‘p harakat qilin-di. Biroq jamiyatimiz uchun foyda keltiradigan avlod o‘rniga obunachi va like yig‘ish kasaliga uchragan qotillar paydo bo‘lmoqda. Ayniq-sa, bunj o‘z onasiga, uni ne-ne umidlar bilan voyaga yetkazgan, jigabandining kamolini ko‘rishni istagan onaga ra‘vo ko‘rganligini aslo kechirib bo‘lmaydi. Bu videoni ko‘rishga insonning yuragi betlamaydi.

Nahot, pul, mashhurlik uchun inson zoti hamma narsadan, hatto ota-onasidan, ham voz kechib ketaversa.

Sinfdoashlarimiz bilan bir kuni ota-onamizga xat yozdik. Xat oxirida ota-onamizning ismini qayd etishimiz lozim edi. Ustozimiz xatlarni o‘qib chiqib, bir sinfdoshimizga “ota-onangning ismini yozolmayasmi?”, deb qoldi. Shunda sinfdoshim bizga bolalikdan ota-onamizning nomini yozish, aytib chaqirish, hazil-mazax qilish mumkin emasligi uqtiril-ganini ta’kidladi. Barchamiz hayratan qotib qoldik, haqiqatan ham ota-onaga hurmat-eh-tirromning chegarasi bo‘lmasligini anglab yet-gandik.

Ko‘zimizda yosh bilan o‘qigan hikoyamni quyida keltirmoqchiman. Ushbu hikoyada ma-layizyalik talabanning ota-onasiga ehtiromi j-maylangan. Buyuk Britaniyada ta’lim olayotgan Muhammad ismli talaba 3 yil davomida avia-ehptalar va safar xarajatlarini uchun o‘qishdan so‘ng farroshlik qilib pul jang‘aradi. Chunki u

Bo‘lgan voqeada garchi aybdor bo‘lmasam-da, yuragim bosh-qacha bo‘lar, menga nisbatan adolatsizlik, hurmatsizlik qilishgan-day tuyulardi. Yonimdagi ayol holatimni ko‘rib, boshidan o‘tgan voqealarni so‘zlay ketdi: “E singlim, xafa bo‘lmang. Men ham siz-day student paytim Toshkentga ko‘p borib kelardim”. Xola uzoq gapirdi, ammo qulog‘imga kirgan gapni faqat shular edi. Uxlolmas-dan ancha yotdim. Poyezd hali shovqin, har kim o‘z ishi bilan band edi.

Har yarim soatda “yo‘lovchilarga mehribonlik qilib, bir so‘mlik narsani o‘n so‘mga pullaydigan akaxon-u opaxonlaringiz” sizdan xabar olishiga tishingizni tishingizga qo‘yib, “ko‘p shukrlar” degingiz keladi. Bir qarasangiz “fast food” to‘la patnis ko‘targan amaki, yana zum o‘tmasdan savchasi-da fanta, kola — do‘kon peshtaxtalarida birinchi qatorni band qiladigan ichimliklarning har xil turidan sotayotgan yigit birato‘la ichuvchilarni ham, chekuvchilarni ham quvontirib ketar edi. Mehribonlikni ko‘ring! Onangizga ro‘mol deysizmi, singilingizga qo‘g‘irchoq, ayolingizga ko‘ylak, zeb-ziyinat, eng noyob parfumeriyalarni ham aynan “mehribon” opalaringiz bi-sotidan topasiz.

Toshkentning eng katta bozori — “ippodrom”ni sakson besh marta aylanib ham bunday narsalarni topolmayasiz, bilmaganlar uchun arz, bilganlarga esa ikki barobar qimmat narx! Mayli, omadim bersin, de-gingiz keladi, lekin qanchalik haqqi bor “uddaburon tadbirkorlar”ning poyezdda “allambalo narsalar” sotishga? Buni ham bir chetga suraylik gap sog‘liq haqida ketganda, ular sotayotgan fast food-u perashkal-ar qachon, qanday, qat sharoitida tayyorlangani siz-u bizga qorong‘i. Bularni kim nazoratga olishi kerak?

...Qachon uxlab qolganimni bilmayman: o‘sha bozorchi xolaga o‘ngimda aylotmalarlarimni tushimda gapirib chiqibman.

Donoxon RO‘ZIBOYEVA, O‘zJOKU talabasi

universitetni bitirish marosimida ota-onasining ham qatnashishini juda istaydi. Muhammadning ota-onasi o‘g‘liga munosib ta’lim berish uchun butun umr mehnat qilishgan edi. Tirish-qoq va a’lochi Muhammad o‘rta maktabni yuqori baholar bilan tamomlab, Buyuk Britaniya-yadagi Essex universitetida o‘qish uchun sti-pendiya bilan taqdirlandi. So‘ngra bo‘lajak universitet talabasi butun qilshoq tomonidan o‘qishga kuzatib qo‘yilgan. “Ota-onam biron marta ham ona qishlog‘ini tark etmagan. Ular butun umr mening munosib ta’lim olishim va kerakli kasbni egallashim uchun mehnat qilish-gan. Men ham ularning o‘g‘li sifatida bitiruv oqshomida, diplom olish marosimida qatnash-ishlarini xohladim va shunga harakat qildim”, — deydi Muhammad. Nihoyat kutilgan damlar yetib, 2019-yilning iyul oyida o‘qishni tamom-ladi. Ota-onasi uni shaxsan tabriklash imkoniyatiga ega bo‘lib, Buyuk Britaniyaga uchib kelishdi. Ushbu yoqimli lahzalar muhurlangan rasmlar butun internetda tarqalib, millionlar e’tiboriga tushdi. Bu hikoya ham farzand-larning ota-onalariga ehtiroim ko‘rsatishlari, o‘zaro munosabatlariga minnatdor va samii-miy bo‘lishlari kerakligi haqida bir ibratdir. Ota-onalar shunday solih farzandlari bo‘lishini har doim Ollohdan so‘raydilar.

Inson umri juda qisqa. Har narsa yonib-kuyishga arzimaydi. Siz boy-badavlat inson-ga havas qilvang, mansabdor insonga havas qilvang, biroq ota-onasini rozi qilgan inson-ga har qancha havas qilsangiz oz. Odamlar-ga yaxshilik qilish ota-onadan boshlanadi. Ularning duolari bilan umrimizga fayz qo‘shiladi. Martabamiz yanada ulug‘ bo‘ladi.

Dilfuza OLIMOVA, O‘zJOKU talabasi

Sahifani Dilafro‘z ABDURAJABOVA tayyorladi.



# FIZIKA


1. 5 kg massali jism suvda qisman botgan holda suzmoqda. Jismga ta'sir etuvchi Arximed kuchini (N) aniqlang.

- A) 45 B) 25 C) 50 D) 30

2. Atomning energiyasi  $6 \cdot 10^{-19}$  J ga ortishi uchun u qanday impulsli (kg·m/s) fotoni yutishi kerak?

- A)  $1,8 \cdot 10^{-27}$  B)  $1,7 \cdot 10^{-27}$   
C)  $2 \cdot 10^{-27}$  D)  $1,9 \cdot 10^{-27}$

3. Rasmda teng miqdorda zaryadlangan *a*, *b* nuqtaviy zaryadlar va ularning natijaviy elektr maydon kuch chiziqlari tasvirlangan. Zaryadlarning ishoralarini aniqlang.




- A)  $a(+)$ ,  $b(+)$  B)  $a(-)$ ,  $b(-)$   
C)  $a(+)$ ,  $b(-)$  D)  $a(-)$ ,  $b(+)$

4.  ${}_{88}^{225}\text{Ra}$  va  ${}_{88}^{227}\text{Ra}$  izotoplari qanday umumiy nomga ega?

- A) radiy izomerlari B) radiy izotoplari  
C) radiy izobarlari D) radiy izotonlari

5. Avtomobilning I daraxtga nisbatan harakat tenglamasi  $x = 8 - 8t - t^2$  ko'rinishda. Agar daraxtlar orasidagi masofa 18 m bo'lsa, II daraxtga nisbatan harakat tenglamasini ko'rsating.



- A)  $x = -10 + 8t - t^2$  B)  $x = 10 + 8t - t^2$   
C)  $x = 10 - 8t - t^2$  D)  $x = -10 - 8t - t^2$


6. Tebranish konturidagi kondensatorning maksimal energiyasi 3 mJ. Konturning to'la energiyasini (mJ) aniqlang.

- A) 3 B) 6 C)  $6\sqrt{2}$  D)  $3\sqrt{2}$

7. Ichki energiyasi 150 kJ bo'lgan geliy gazi  $0,75 \text{ m}^3$  hajmli idishda turibdi. Idishdagi bosimni (kPa) aniqlang.


- A) 200 B) 133 C) 166 D) 94

8. Agar magnit maydon induksiyasi  $x$  o'qi bo'ylab, magnit maydondagi elektronning tezligi  $z$  o'qiga qarshi yo'nalgan bo'lsa, Lorens kuchi qanday yo'nalgan?



- A)  $z$  o'qiga qarshi B)  $x$  o'qiga qarshi  
C)  $y$  o'qi bo'ylab D)  $x$  o'qi bo'ylab

9. Yerga nisbatan  $v_1 = 2 \text{ m/s}$ ,  $v_2 = 3 \text{ m/s}$  tezliklar bilan harakatlanayotgan platformalar ustida platformalarga nisbatan  $v_3 = 3 \text{ m/s}$  va  $v_4 = 4 \text{ m/s}$  tezliklar bilan ikki odam rasmda ko'rsatilganidek harakatlanmoqda. Odamlarning nisbiy tezligi (m/s) qanday? (odamning harakati platformaning harakatiga ta'sir ko'rsatmaydi)



- A) 12 B) 7 C) 5 D) 0

10. Ideal gaz sovutilishi natijasida temperaturasi 2 marta kamaydi. Uning dastlabki ichki energiyasi 110 kJ bo'lsa, sovigandan keyingi ichki energiyasini (kJ) aniqlang.

- A) 85 B) 55 C) 220 D) 27,5

11. O'zgaruvchan tok zanjirida reaktiv qarshilik  $5 \Omega$ , aktiv qarshilik  $4 \Omega$ , effektiv tok kuchi 2 A. Tokning o'rtacha quvvati (W) topilsin.

- A) 32 B) 12,5 C) 25 D) 16

12. Ikki foton solishtirilmogda, ikkinchisining davri birinchisikidan ikki marta ortiq.

Birinchisining to'liq uzunligi  $10^{-3} \text{ m}$  bo'lsa, ikkinchisining energiyasi (J) qanday?

- A)  $10^{-19}$  B)  $10^{-20}$  C)  $10^{-22}$  D)  $10^{-21}$

13. Ikki moddiy nuqta garmonik tebranmogda. Ikkinchisining tebranish chastotasi 2 marta kichik, maksimal tezligi 2 marta ortiq. Agar birinchisining eng katta tezlanishi  $4 \text{ m/s}^2$  bo'lsa, ikkinchisikini qanday ( $\text{m/s}^2$ )?

- A) 1 B) 4 C) 3 D) 2


14. Qavariq ko'priknin yuqori nuqtasidan doimiy tezlik bilan o'tayotgan 1,2 t massali mashinanin og'irligi 10 kN ga teng. Mashinanin normal tezlanishi ( $\text{m/s}^2$ ) qanday?

- A) 2,91 B) 2 C) 5 D) 1,67

15. Qarshiliklari  $R_1 = 6 \Omega$  va  $R_2 = 2 \Omega$  bo'lgan o'tkazgichlar  $U = 12 \text{ V}$  tok manbayiga parallel ulandi.  $R_2$  qarshilikdan vaqt birligida oqib o'tadigan zaryad miqdori  $R_1$  qarshilikdan vaqt birligida oqib o'tadigan zaryad miqdoridan qanchaga ortiq (C/s)?

- A) 4 B) 6 C) 2 D) 5

16. A neytral, B va C zaryadlangan sferalar berilgan bo'lib, B sfera A sferaning ichida. Zaryadlari mos ravishda  $q_A = 0$ ,  $q_B = +7q$ ,  $q_C = -4q$  ga teng. A sferaga dastlab B sferani ichidan tekkizib olinsa, keyin C ni tashqaridan tekkizib olinsa, jarayon oxirida A, B va C sferalarning zaryad ishoralari mos ravishda qanday bo'lib qoladi?



- A) + + B) + + + C) + - - D) + 0 0

17. Harakatdagi Neksiya avtomobiliga 210 N ishqalanish kuchi 18 s ta'sir etsa, uning impuls (kg·m/s) qanchaga kamayadi?

- A) 2520 B) 7560 C) 3780 D) 5670

18. Qarshiligi  $13 \Omega$  bo'lgan o'tkazgichning uchlariga 26 V kuchlanish qo'yilgan. Undan o'tayotgan tok kuchini (A) aniqlang.

- A) 4 B) 1 C) 3 D) 2

19. Kolibrining massasi 3 g. Uning og'irlik kuchi (N) qanday?


- A) 0,03 B) 3 C) 0,3 D) 0,003

20. Absolyut uzayish formulasini ko'rsating.

- A)  $\frac{l_0}{l - l_0} E$  B)  $l - l_0$  C)  $\frac{F}{S}$  D)  $\frac{l - l_0}{l_0}$

21. Tokli o'tkazgich bir jinsli magnit maydonga rasmda ko'rsatilganidek joylashtirildi.

O'tkazgichga ta'sir etuvchi Amper kuchining yo'nalishini aniqlang.



- A) yuqoriga B) pastga C) o'ngga D)  $F=0$

22. 0,6c tezlik bilan harakatlanayotgan zarraning to'la energiyasi 3,5 TJ bo'lsa, uning tinchlikdagi energiyasini (TJ) aniqlang.  $c$  - yorug'likning vakuumdagi tezligi.

- A) 2,8 B) 3 C) 2,6 D) 2,4

23. Zaryadlardan biri 2 marta orttirilganda, bu ikki zaryad orasidagi o'zaro ta'sir kuchi qanday o'zgaradi?

- A) 2 marta ortadi B) 4 marta ortadi  
C) 2 marta kamayadi D) 4 marta kamayadi

24. Vertikal pastga otilgan jismning harakat boshidan 5 s o'tgan paytdagi tezligi 60 m/s bo'lsa, 1 s avval uning tezligi (m/s) qanday bo'lgan?

- A) 50 B) 20 C) 30 D) 40

25. Prujinaga ilingan 1,5 kg massali jism 0,1 s davr bilan garmonik tebranmogda. Unga qanday massali (kg) qo'shimcha yuk ilinsa, sistemaning tebranish davri 0,2 s bo'lib qoladi?

- A) 3 B) 1,5 C) 6 D) 4,5

26. 15 °C temperaturali xonaning nisbiy namligi 80 foiz. Agar xona haroratini 25 °C gacha isitsak, uning nisbiy namligi qanday (foiz) bo'ladi? 15 °C da havoning to'yinish chegarasi  $12,8 \text{ g/m}^3$ , 25 °C da esa  $17,9 \text{ g/m}^3$ .

- A) 26 B) 100 C) 57,2 D) 43,4

27. Yer sirtidagi kapillyarda suv 21 mm ko'tarildi. Oy sirtida shu kapillyarda suv qanday balandlikka (mm) ko'tariladi? Oy sirtidagi erkin tushish tezlanishi Yer sirtidagidan 6 marta kichik.

- A) 21 B) 63 C) 3,5 D) 126

28. Normal sharoitda dengiz sathidan 96 m balandlikdagi bosim dengiz sathidagi bosimdan qanchaga (mm Hg) farq qiladi?

- A) 10 B) 8 C) 12 D) 6

29. 2 soat davom etgan elektrolizda katodda 15 g kumush ajralib chiqdi. Elektroliz jarayoni yana 4 soat davom ettirilsa, hammasi bo'lib qancha(g) kumush olinadi?

- A) 45 B) 37,5 C) 52,5 D) 30

30. 5 sm ga cho'zilgan prujinaning potensial energiyasi 30 J. Prujinaning bikrligini (kN/m) aniqlang.

- A) 36 B) 48 C) 24 D) 12

# GEOGRAFIYA

31. Jahonning asosiy neft sotib oluvchi davlatlarini toping.

- A) Hindiston, AQSh, Fransiya,  
B) Rossiya, Germaniya, Kanada  
C) Ukraina, Buyuk Britaniya, Kanada  
D) AQSh, Xitoy, Yaponiya

32. Turkiya davlati iqtisodiy geografik o'rningning qulayligi qaysi jihat bilan belgilanadi?

- A) asosiy qismi Yevropada joylashganligi  
B) maydonning juda kichik qismi Osiyoda joylashganligi  
C) bir nechta dengizga tutashligi  
D) eng rivojlangan davlatlar bilan chegaradoshligi

33. Qozog'iston hududida yozda mo'tadil havo massasi uzoq vaqt turishi natijasida qanday tabiiy geografik jarayon vujudga keladi?

- A) siklon faoliyati kuchayadi  
B) antisiklon faoliyati kuchayadi

- C) yog'in yog'ishi umuman kuzatilmaydi  
D) havo uzoq vaqt juda qizib ketadi

34. Surxondaryo viloyatining qaysi shahrida Shred-er nomidagi respublika bog'dorchilik, uzumchilik va sharobchilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba stansiyasi joylashgan?

- A) Uzun B) Denov  
C) Angor D) Boysun

35. Respublikamizning eng katta sug'oriladigan yerlariga qaysi hududlar kiradi?

- A) Qorako'l vohasi, Samarqand viloyati  
B) Qashqadaryo viloyati, Zarafshon vodiysi  
C) Surxondaryo vohasi, Jizzax viloyati  
D) Sirdaryo viloyati, Qarshi cho'li

36. Panj va Vaxsh daryolari qaysi tog'(lar) dan oqib tushadi?

- A) Markaziy Tyanshan B) Oloy  
C) Pomir D) G'arbiy Tyanshan


37. Respublikamizning qaysi hududida ba'zan Arktika va Sibir havo massalarining kirib kelishi va turib qolishi natijasida qish sovub ketadi va eng past harorat - 30 °C gacha pasayadi?

- A) Surxondaryoda B) Qizilqumda  
C) Ustyurtda D) Toshkentda

38. Jon Kabot quyidagi qaysi yarimorolning qirg'oqlarini kashf etgan?

- A) Yukatan B) Yangi Shotlandiya  
C) Skandinaviya D) Labrador

39. Yevrosiyo materigining yozuvsiz xaritasida Tay-mir yarimoroli qaysi raqamda berilgan?




- A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

40. Chirchiq-Ohangaron okrugida qaysi cho'l joylashgan?

- A) Malik B) Qarnob  
C) Dalvarzin D) Yozyovon


41. Quyidagi ma'lumotlar asosida Eyler-Venn diagrammasiga mos tushadigan to'g'ri javobni toping.

- (I) Farg'ona tabiiy geografik okrugi; (II) Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugi;  
a) okrugning tog'oldi qismida konussimon yoyilmalar keng tarqalgan; b) okrugning yer yuzasida qator daryo qayirlari mavjud; c) okrug tektonik botiqda joylashgan; d) okrug arid-denudatsion plato hisoblanadi.



42. Materik yonbag'ri yana qanday nomlanadi?  
A) okean shelfi B) abissal  
C) cho'kma D) batial

43. Qaysi tillar BMT faoliyatida qo'llaniladigan rasmiy tillar hisoblanadi?



- A) slovak, island B) ispan, xitoy  
C) shved, norveg D) rumin, italyan

44. Karpat tog'larining geologik kelib chiqishiga xos bo'lgan xususiyatlarni belgilang.

- A) bu tog'larning zamini qadimgi litosfera plitalari ustida joylashgan bo'lib, asosan, yer qimirlashlari natijasida hosil bo'lgan  
B) bu tog'lar, asosan, baykal tog' burmalanishi davrida hosil bo'lgan  
C) bu tog'lar yangi tog' burmalanishlari, vulqonlar ta'sirida hosil bo'lgan  
D) bu tog'lar kaledon tog' hosil bo'lishida vujudga kelgan, zamini, asosan, qadimgi magmatik jinslar bilan qoplangan

45. Avstraliya materigining subekvatorial iqlim mintaqasida qishda qanday iqlimiy xususiyatlar tarkib topadi?

- A) tropik havo massalari hukmronlik qiladi, havo quruq bo'ladi, yog'in kam yog'adi  
B) ekvatorial havo massalari hukmronlik qiladi, havo nam bo'ladi, yog'in ko'p yog'adi  
C) nam tropik iqlim tipi tarkib topgan, qishda ancha yog'in ko'p tushadi, harorat doimo yuqori bo'ladi  
D) subtropik iqlim iqlim tipi shakllangan, yog'in kam, harorat doimo yuqori bo'ladi

46. Vulqonli orollardan birini aniqlang.

- A) Yangi Gvineya B) Yangi Kaledoniya  
C) Pasxa D) Mariana

47. Birinchi seysmograf kim tomonidan ixtiro qilgan?

- A) rus olimi M.Lazarev  
B) amerikalik olim J.Oliver  
C) yaponiyalik munajjim O.Kotsebu  
D) xitoylik munajjim Chjan Xen

48. Gaiti davlatining poytaxtini belgilang.

- A) Madjuro B) Port-o-Prens C) Mbabane  
D) Sent-Jorjes

49. Tinch okeaniga xos bo'lgan asosiy xususiyatni aniqlang.

- A) baliq ovlash bo'yicha birinchi o'rinda turadi  
B) neft va gaz qazib olishda birinchi o'rinda turadi  
C) eng uzun bo'g'oz shu okeanda joylashgan  
D) eng katta suv osti deltasi bor

50. Qozog'iston tabiiy geografik kichik o'lkasiga qaysi hududlar kiradi?

- A) Quyi Amudaryo vodiysi, Qizilqum cho'li, Janubiy Qozog'iston cho'llari  
B) Mang'ishloq yarimoroli, To'rg'ay supasimon o'lka-si, Markaziy Tyanshan  
C) Ustyurt platosi, Kaspiybo'yi tekisligi, Qozog'iston past tog'lari  
D) Qoraqum cho'li, Mang'ishloq yarimoroli, Sharqiy Qozog'iston tog'lari

51. Atlantika okeaniga tegishli bo'lgan dengizlarni aniqlang.

- A) Marjon, Seram B) Irlandiya, Balear  
C) Ueddell, Amundsen  
D) Norvegiya, Andaman

52. Osiyo qit'asidagi qaysi davlatlarning maydoni 500 ming km<sup>2</sup> dan ortiq?

- A) Yaponiya, Vetnam  
B) Ozarbayjon, Pokiston  
C) Saudiya Arabistoni, Iroq  
D) Pokiston, Afg'oniston

53. Shimoliy va janubiy subekvatorial iqlim mintaqasida qaysi havo massalari hukmronlik qiladi?

- A) yozda mo'tadil, qishda subekvatorial havo  
B) yozda tropik, qishda subekvatorial havo  
C) yozda ekvatorial, qishda tropik havo  
D) yozda tropik, qishda ekvatorial havo

54. Farg'ona vodiysida joylashgan ko'llarni belgilang.

- A) Qoraqir, Tuzkon  
B) Ulug'sho'rko'l, Dengizko'l  
C) Sho'rko'l, Arnasoy  
D) Damko'l, Axsikentko'l

55. O'rta Osiyo o'lkasida mezozoy erasining o'rta-larida qanday iqlimiy o'zgarishlar sodir bo'lgan?

- A) iqlim juda quruq bo'lgan  
B) iqlim nam va issiq bo'lgan  
C) iqlim sovuq va quruq bo'lgan  
D) sovuq iqlim hukm surgan

56. Jahon mamlakatlari ichida maydonning kattaligi bo'yicha "birinchi o'nlik" tarkibiga kiruvchi davlatni belgilang.

- A) Kolumbiya B) Meksika  
C) Mongoliya D) Hindiston

57. Eron (1) va Pokiston (2) davlatlari aholisi-ga tegishli ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) urbanizatsiya darajasi 70 foizdan yuqori;  
B) aholining milliy tarkibida asosiy millatining ulushi 98 foizga teng; C) eng yirik shaharining aholisi 15 million kishidan ortiq  
A) 1-c, 2-a B) 1-b, 2-c  
C) 1-a, 2-c D) 1-a, 2-b

58. Pokiston davlati hududida tashkil etilgan milliy bog' nomini aniqlang.

- A) Olikmen B) Kirtarx C) Shingu D) Savo

59. Orkutsoy marmar koni qaysi viloyat hududida joylashgan?

- A) Jizzax B) Navoiy  
C) Toshkent D) Samarqand

60. V.Dokuchayevning geografiya fani rivojiga qo'shgan hissasini aniqlang.

- A) Geografik qobiq ta'limotini ishlab chiqdi  
B) Yer po'stining rivojlanish nazariyasini ishlab chiqdi  
C) Tabiat zonalligi ta'limotini yaratdi  
D) Biosfera ta'limotini yaratdi

# “Ma'rifat” repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 31-varianti

### ONA TILI (10-sinf: II qism)

1. Quyidagi so'zlarni qaysi nutq uslubida qo'llanishiga ko'ra moslashtiring.

- 1) so'zlashuv; 2) ilmiy; 3) publitsistik;  
4) rasmiy; 5) badiiy.

a) ijodkor yoshlar; b) yillar armoni; d) quyida imzo chekuvchilar; e) yeb tashlamoq; f) tajriba asosida:

- A) 1-d, 2-f, 3-a, 4-e, 5-b B) 1-e, 2-f, 3-a, 4-d, 5-b  
C) 1-e, 2-f, 3-b, 4-d, 5-a D) 1-f, 2-e, 3-a, 4-d, 5-b

2. “U ish qog'ozlaridan, rasmiy uslub janrlaridan biri. Uning birinchi sahifasida shaxsning surati, ismi, otasining ismi va familiyasi, tug'ilgan joyi, qayerda ta'lim olganligi, ma'lumoti, qayerda va qanday tashkilot(lar)da ishlaganligi, mukofotlar olgan/olmaganligi, harbiy xizmatga aloqasi, qaysi chet tillarini bilishi kabilar aks etadi. Orqa sahifada shaxsning yaqin qarindoshlari: ota-onasi, aka-ukalari va opa-singillari, (agar turmush qurgan bo'lsa) turmush o'rtog'i, qaynota-qaynonasi hamda farzandlari haqida ma'lumot beriladi”.

Ushbu ta'rif qaysi ish qog'ozini haqida?

- A) ariza B) tavsifnoma  
C) rezyume D) tavsifnoma

3. Qaysi qatorda publitsistik uslubga xos so'z berilgan?

- A) ilg'or B) zormanda  
C) marketing D) saxovatpesha

4. “Uslublarning eng murakkabi. Unda muallif asarning go'yaviy mazmuni va o'z maqsadidan kelib chiqib turli uslub unsurlarini qorishiq holda qo'llashi mumkin”.

Ushbu ta'rif qaysi nutq uslubi haqida?

- A) so'zlashuv uslubi B) rasmiy uslub  
C) ilmiy uslub D) badiiy uslub

5. Qaysi atama fransuzcha “tajriba”, “mashq”; “xomaki narsa” degan ma'noni bildiradi?

- A) esse B) pamflet  
C) felyeton D) rezyume

6. Qaysi gapda nutqning mantiqiy nomutanosibligi kuzatilgan?

- A) Qarg'a sayradi.  
B) Otasiga suyandi.  
C) Maktabning bog'i chiroyli edi.  
D) Shomda oy bo'zardi.

7. “Jigarrang jemper kiyib, kichkina qora sherst ro'moli... dahani... bog'lab olgan novcha, qotma bir ayol ostona... kira solib u bilan quchoqlashib ko'rishdi”.

(S. Zunnunova).

Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalarni qo'yib gapni to'ldiring.

- A) -ning, -ni, -dan  
B) -ni, -dan, -dan  
C) -ni, -ga, -dan  
D) -ga, -ni, -dan

8. Bu mo'ysafid Hotamtoy emas, Valiy emas, kekxa nuroniy. U olamga berib turgan dars – O'zbeklarning toza iymoni.

Ushbu gapda qariya so'zi bilan sinonimlik hosil qiluvchi so'zlar necha o'rinda qatnashgan?


- A) 2 o'rinda B) 3 o'rinda  
C) 1 o'rinda D) 4 o'rinda

9. Sulton Mahmudning qiyofasidan obro'li, martabali zot ekanini fahmladi.

Ushbu gapdagi sifatlarning antonimi ishtirok etgan javobni aniqlang.

A) Ko'p o'tmay Abdurahmon madrasa ahli orasida ham beobro' bo'lib qoldi.

B) Bu muloyim tog' yigitining o'sha kungi so'zlari beozor qizning yuragida tug'yon qo'zg'adi.



C) Yo'ldan urdi qaysi bir makkor? Ochig'ini so'zlagil, beor!

D) Tun bo'yi beorom to'qiganim ul – tivit ro'mol emas, kechir, onajon.

10. Qaysi javobda antonim juftlik berilmagan?

- A) Yoshlikda bilgani – toshga yozgani, Qarilikda bilgani – muzga yozgani.  
B) Hunarli er xor bo'lmas, Do'st-dushmanga zor bo'lmas.  
C) Yolg'on aytib foyda ko'rsang, Oxiri zarar toparsan.  
D) Yo bilimli, yo ziyrak bo'lish o'zingga bog'liq.

11. Dunyo tillarining guruhlariga bo'linishi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) xavfsizligi ta'minlangan tillar: ingliz, xitoy, ispan, nemis, fransuz, arab, qirg'iz tllari  
B) ehtiyotlab tillar: belorus, yoqut, chechen, tuva, portugal tillari  
C) o'lim xavfiga yaqinlashayotgan tillar: chukot, karel, qalmiq, udmurd tillari  
D) o'lim xavfiga duch kelgan tillar: aleut, ters-saam, itelmen, turk tillari

12. Qaysi qatordagi gaplarda birinchi gapdagi so'zning omonimi ikkinchi gapda berilmagan?

- A) Nazarimda, yuragimning urishini butun dunyo eshitayotgandek edi. // – Men dunyoga kelib, dunyo o'rtirdim.  
B) O'ng qoshi ustidagi kichkina ortiq ham quruq qolmadi, tiniq yuzda “mana men” deb o'z rassomini quvontirdi. // – Darrov hovlini o'z bahosidan ancha ortiqqa olibdi. (A. Qahhor)  
C) Dunyo ekan... ishig degan savdo Bormi faqat mening boshimda?! // – Bir kuni qaynotasi Yodgorga maslahat soldi: “Qachongacha qishli-qirovli kunlardayam loy changalab yurasiz? Savdoga kiring – savdoda gap ko'p”.

D) Qishlog'imizdagi Abdurahmon boboning yoshi yuz yoshdan kam bo'lmasa kerak. // Mahallamizdagi bir qarashda yoshdek ko'ringan chinorlarning ekilganligiga kamida yuz yil bo'libdi.

13. Qaysi qatorda boshqa tildan o'zlashib bugungi kunda tilimizga butunlay singishib ketgan so'zlar berilgan?

- A) fe'l, anonim B) rayon, oblast  
C) stol, shkaf D) kitob, vokzal

14. Qaysi nutq uslubida erkin, ijodiy yondashish mumkin emas?

- A) publitsistik uslub B) rasmiy uslub  
C) badiiy uslub D) ilmiy uslub

15. “2020-yilning 10-mart kuni bizning “Bunyodkor” guruhimiz tomonidan hududda tashkil etilgan “Yoshlar bog'i”ga 20 tup archa, 10 tup kashtan, 10 tup magnoliya manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi”.

Ushbu matn ish qog'ozlarining qaysi turiga mos keladi?


- A) bildirishnoma B) ariza  
C) bildirgi D) tavsifnoma

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 10-sinf “Ona tili” darsligining I va II qismlaridan umumiy mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularini qunt bilan o'qing va bilimingizni mustahkamlang.

G'anisher HAQNAZAROV,  
Xatirchi tumanidagi  
1-maktab o'qituvchisi


### MATEMATIKA ("Takrorlash testlari", 6–11-sinf materiallari bo'yicha)

16. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra B+A ning qiymatini toping.



- A) 39 B) 29 C) 49 D) 65

17. Ifodani hisoblang:  $\frac{1}{3} \cdot (-\frac{2}{7}) : (-\frac{5}{42})$



- A) 0,8 B)  $\frac{5}{441}$  C)  $\frac{10}{882}$  D) -0,8

18. Agar kubning bir yog'ini yuzi  $16^2$  sm.ga teng bo'lsa uning hajmini toping.

- A)  $64^2$  sm B)  $16^2$  sm  
C)  $64^3$  sm D)  $16^3$  sm

19. Konusning asosi nimadan iborat?

- A) aylana B) doira C) kvadrat D) uchburchak

20. Agar berilgan shakldagi kvadratlarning qirralari 3 sm.ga teng bo'lsa, uning hajmini toping.

- A)  $27^3$  sm B)  $81^3$  sm  
C)  $162^3$  sm D)  $243^3$  sm

21. Quyidagi tasdiqlardan qaysi biri to'g'ri?


- 1) Toq va juft sonlar doimo o'zaro tub;  
2) Ikki ta juft son o'zaro tub bo'la olmaydi;  
3) Ikki ta turli tub sonlar doimo o'zaro tub;

# “Ma'rifat” repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 31-varianti

- 4) Ikki ketma-ket natural sonlar doim o'zaro tub;  
5) 39 va 91 sonlari o'zaro tub  
A) 1); 3); 5) B) 4); 5)  
C) 2); 3); 5) D) 2); 3); 4)

22. Berilgan paralleloipedning o'lchamlari quyidagicha bo'lsa, quyidagi shaklning hajmini toping:



- A) 248 B) 196 C) 152 D) 120

23. 34567...798081 nechta xonali son?  
A) 81 B) 153 C) 90 D) 151

Mahsulot turi	Miqdori (kg)	Qiymati (so'm)
Olma	3	18000
Anor	4	20000
Xurmo	2	6000

24. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra 2 kg olma, 1 kg anor va 1 kg xurmoning umumiy bahosi nechta so'm bo'lishini toping.  
A) 11000 B) 20000  
C) 15000 D) 14000

25. Molning narxi birinchi marta 20% ga, so'ngra yangi bahosi yana 30% ga, oxirgi hisobotdan keyin yana 10% ga pasaytirildi. Molning narxi hammasi bo'lib nechta % ga pasaytirilgan?  
A) 61,2% B) 60% C) 50,4% D) 49,6%

26. Suv bilan to'la idishning og'irligi 9 kg, yarmigacha to'ldirilganda esa 5 kg bo'lsa, idish to'ldirilgandagi suvning og'irligini toping.  
A) 3 B) 9 C) 10 D) 8

27.  $1 + \frac{2}{3 + \frac{3}{4}}$  ning qiymatini toping.  
A) 3 B)  $\frac{12}{23}$  C)  $\frac{15}{23}$  D)  $\frac{11}{23}$

28. 185632, 3228965, 117354, 18975480 sonlari orasidan 6 ga qoldiqsiz bo'linadigan natural sonlarni toping.  
A) 14356, 3228965 B) 117354, 18975480  
C) 143546, 117354 D) 185632, 3228965

29. Do'konga har birida 25 tadan daftar bo'lgan bir nechta bog'lam va yana 15 ta daftar keltirildi. Hammasi bo'lib 340 ta daftar keltirilgan. Do'konga hammasi bo'lib nechta bog'lam daftar keltirilgan?  
A) 12 B) 13 C) 10 D) 23

30. Ishchining maoshi ikki marta ketma-ket 20 foizdan oshirilgan bo'lsa, uning dastlabki maoshi nechta foizga oshdi?  
A) 20% B) 40% C) 44% D) 30%

Keyingi sonda “Fazoviy jismlar va ularning o'lchovlari” mavzusiga oid testlar beriladi, bunda testlar 6–8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,  
G'ijduvon tumanidagi  
32-maktab o'qituvchisi

11-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligining I bobida tuzilgan test topshiriqlari

31. O'zSSR Oliy Kengashining II sessiyasida tuzilgan Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha

komissiya tarkibi necha kishidan iborat edi?

- A) 40 kishi B) 60 kishi  
C) 64 kishi D) 72 kishi

32. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Xavfsizlik kengashiga lavozimiga ko'ra kim Raislik qiladi?

- A) Bosh vazir B) Prezident  
C) vitse-Prezident D) Mudofaa vaziri

33. Nechanchi yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvchi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etilgan?

- A) 2008-yil B) 2010-yil  
C) 2016-yil D) 2017-yil

34. 1992–1995-yillarda kim O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimida faoliyat yuritgan?

- A) Shukrullo Mirsaidov B) Abdulhoshim Mutalov  
C) O'tkir Sultonov D) Erkin Xalilov

35. Oliy Majlis Senatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan nechta nafardan a'zo saylanadi?

- A) 12 nafar B) 2 nafar  
C) 6 nafar D) 8 nafar

36. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida nechta nafar deputat faoliyat yuritmoqda?

- A) 150 nafar B) 135 nafar  
C) 120 nafar D) 100 nafar

37. 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum natijalariga ko'ra qabul qilingan Konstitutsiyaviy qonunlar quyidagi qaysi javoblarda to'g'ri ko'rsatilgan?

- 1) “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida”; 2) “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida”; 3) “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida”; 4) “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”; 5) “O'zbekiston Respublikasi Saylov to'g'risida”

- A) 1, 3 B) 2, 3  
C) 2, 4 D) 1, 2

38. BMTga a'zo davlatlardan nechtasida Prezident lavozimi joriy etilgan?

- A) 143 B) 160  
C) 175 D) 138

39. “O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida”gi qonun O'zR Oliy Kengashining nechanchi sessiyasida qabul qilingan?

- A) VI sessiya B) IX sessiya  
C) X sessiya D) VIII sessiya

40. Nechanchi yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga Prezident vakolatini 7 yildan 5 yilga qaytarishni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritilgan?

- A) 2011-yil B) 2013-yil  
C) 2015-yil D) 2012-yil

41. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy loyihasi umumxalq muhokamasi uchun 2-marta matbuotda e'lon qilinganda aholi tomonidan qancha taklif va mulohazalar bildirilgan?

- A) 2,5 mingdan ortiq B) 3 mingdan ortiq  
C) 4,5 mingga yaqin D) 6 mingdan ortiq

42. O'zbekistonning mustaqillik davri tarixi birinchi bosqichi qaysi yillarni qamrab oladi?

- A) 1991–1997-yillar B) 1990–2000-yillar  
C) 1991–2005-yillar D) 1991–2016-yillar

43. Lotincha “ma'lum qilinishi zarur bo'lgan narsa” ma'nosini anglatib, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalalar bo'yicha o'tkaziladigan va ba'zan qonun qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan umumxalq so'rovi, ovoz berish yo'li bilan xalq fikrini aniqlash mazmunini ifodalovchi atamani belgilang.

- A) referendum B) manifest  
C) deklaratsiya D) boykot

44. O'zbekiston SSR Oliy Kengashining nechanchi sessiyasida O'zbekiston SSRning Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilingan?

- A) Birinchi B) Ikkinchi  
C) Uchinchi D) To'rtinchi

45. O'zbekistonda davlat boshqaruvining uyg'un tizimini yaratish, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini bir-biridan qat'iy farqlab qo'yish muhim ekanligini hisobga olib, prezidentlik hokimiyati bilan Ministrlar Sovetining ijroiya-boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilgan sanani belgilang.

- A) 1990-yil 24-mart B) 1990-yil 20-iyun  
C) 1990-yil 1-noyabr D) 1991-yil 15-fevral

Jalol BOLTAYEV,

Urganch davlat universiteti talabasi, repetitor

### 31-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
B	C	A	D	A	D	C	B	A	D	C	D	C	B	A
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
D	A	C	B	C	D	D	D	B	D	A	C	B	B	C
TARIX														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
C	B	D	B	C	A	D	A	D	A	D	D	A	B	C



# Qo'ng'iroq chalinguncha Unutmoq osonmas!..

Andi-jonga bahor keldi. U chor atrofni kezib, ariq bo'ylaridan, bog'lardan shoirini qidirdi. Shoir yo'q. Yalpiz-u rayhonlardan, erka kiyik hamda jayronlardan Muhammadini darakladi. Ular ma'yus tortib boshlarini eggancha "Muhammad yo'q" deyishdi.

Bahor shoshilganча Muhammadning hovlisiga mo'raladi. Ayvondan shoirning turmush o'rtog'i Naziraxonning iztirobli nolalari eshitildi: "Siz talpinadigan ota hovlingizga keldim, Shoirim. Siz yo'qsiz. Siz yaxshi ko'rgan bahor keldi. Qaldirg'ochlaringiz qaytdi, ammo Siz qaytmadingiz. Farzandlarimiz kamolini birga ko'rsak bo'lmasmidi, Shoirim!.."

*Yashnagan hovlida izlari qoldi,  
Umrining bahori, yozlari qoldi.  
Aytolmay og'zida so'zlari qoldi,  
G'animat ekanin angolmabman-a!"*

Qaldirg'ochlar Naziraxonning boshi uzra parvona bo'lib, qanotlari ila uning boshini silab-siypaladi, ovutdi. Bahor achchiq faryod chekdi. Butun zamin larzaga keldi. Momaqaldiroq gumburladi. Chaqmoq chaqdi. Bulutlar ko'zyosh to'kdi. Bahor Muhammad Yusufdek zo'r shoirning oramizdan ketganiga hamon ishonmas, ishongisi kelmasdi ham. Shu payt olis-

olislardan yangrayotgan qo'shiq quloqqa chalindi:

*Soyaman ortingdan ergashgan,  
Yostiqlaman tunlari dardlashgan.  
Tushingman o'ngingga almashgan,  
Unutmoq osonmas bizlarni.*

Bahor asta boqqa yo'l oldi. Bog'da yig'ilgan bir guruh yoshlarning suhbatiga beixtiyor quloq tutdi. Ular goh Muhammad Yusuf she'rlaridan o'qir, goh shu satrlar mazmuni haqida bahslashar edilar.

Yaxshiyam she'r bor, kuy bor, qo'shiq bor. Demak, Muhammad Yusuf muxlislarining qalbida, sozandaning kuyida, hofizning qo'shig'ida yashamoqda. Bundan bahorning ko'ngli biroz taskin topgandek bo'ldi-yu, qabristonga — shoirning xoki poyiga gullar to'shagani oshiqdi.

Qo'shiq hamon yangrardi:

*... Bu dardga yo'q erur davolar,  
Unutmoq osonmas bizlarni...*

Shoirning qabri uzra ochilgan bag'riqon lola-qizg'aldoqlar esa shu qo'shiq ohangiga mos ravishda asta chayqalardi.

O'g'ilxon YO'LDOSHEVA,  
Baliqchi tumanidagi  
6-maktab o'qituvchisi

## Ekilmagan gullar

Uni yaqin dugonamning uyi derazasida birinchi marta ko'rganim-dayoq yoqtirib qolgandim. Nomini ikkimiz ham bilmaydigan bu chiroyli gul qayerdan kelib qolganini so'raganimda u tayinli javob aytolmagandi. Go'yo gul doim shu yerda bo'lgandek. Uning gullari binafsharang, mitti-mitti edi. Barglari shapaloqdek edi-yu, xuddi gul poyiga poyandoz to'shab turganga o'xshab ko'ringani uchun xunuk deb ham bo'lmasdi. Unga mehrim tushib qolganini ko'rgan dugonam, "sovg'a qilaymi", deb aytgani bilan sira bergisi yo'q. Odamlarning xohish-istaklarini o'zimmikidan ustun qo'yib yashaganligim uchun, uni yoqtirgan narsasidan ajratgim kelmadi. Ammo ketar chog'im qo'yarda-qo'yamay, juda ehtiyotkorlik bilan gulning bir poyasini tomiri bilan olib berdi.

— Uyingga boribok ekib qo'ygin. U sho'x gul, tez ko'karadi, — dedi dugonam. — Yaxshi qaragin, — deb qo'shib qo'ydi tabassum bilan.

Oh, mening romantik, ko'ngli guldek go'zal dugonam... Sendan uni olayotganda mehrim shunday tovlanib ketdiki, go'yo qo'limda nimjongina ojiz o'simlik emas, butun dunyo mehriini tutib turgandek edim. Axir mehrimning katta-kichigi bo'lmaydi-ku. U yo bor bo'ladi, yoki yo'q. Tamom.

Uyga qaytgach birinchi qiladigan ishim gultuvak topib ekib qo'yish bo'ldi. Shuni xayollab kirib keldim-u, izlaganimni topolmay gulni suvga soldim. Va o'z ishlarimga sho'ng'idim. Ehtimol, o'shandan boshlangandir hammasi. Ehtimol, undan ancha oldinroq. Xullas, u gul suvda qoldi. Unga munosib chiroyli, mo'jazzina gultuvak topgumimcha

suvida uzoq qoldi. To'g'ri, unga yaxshi qaradim, shakarli suvda gullar so'limay uzoq turishini bilib, shirin suvlarga solib qo'ydim. Har kuni o'qishdan kelib uning suvini almashirdim va har gal bozorga kirish yodimdan chiqqanidan o'zinni kuydim. Holbuki, gulbozor men har kuni chiqadigan metroning yonida edi...

Kunlar ortidan haftalar o'tib gul g'unchalab gullay boshladi. Balki u mening shirin suvlarimdan, qaysh nuri tushadigan joylarga kunda ko'chirishimdan va yana qancha mehribonchiligidan gullab yubogandir. Bilmadim, balki ayni gullash payti bo'lganligi uchungina gul ochgandir. Bilganim u o'shanda ham suv ichida, guldonga osilib qolganча turardi. Men uning kunda o'sayotgan o'zidek nozik tomirlariga qarab qo'yardim. Hali eksam, birdan gurkirab ketadi, derdim o'zimcha.

Bir kuni uning suv va havo orasidagi poyasi qorayib chiriyotganini payqab qoldim. Endi uni ortiq bunday ushlab turib bo'lmasligini sezib, o'qishimdan qaytishda nihoyat gultuvak sotib olib, uyga qaytsam...

U yo'q edi. Odatda birinchi xayolga kelgan fikr to'g'ri bo'ladi. Onam anchadan beri uni ekib qo'yishimni aytardi.

— Onajon, derazamdagi gul qayerda? — so'radim iloji boricha xotirjamlik bilan.

— Gulmi yo guldonmi? — dedi onam.

— Nima, ikkisi boshqa-boshqa joydami?

— Ha, guling chirib ketibdi, otvordim. Guldonni esa yuvib qo'ydim. Ana, turibdi.

Onam buni nihoyatda oddiy aytdi. Men esa qo'limdagi izlagan gul-

tuvagimni tutgancha, aytishga so'z topolmay qotib qoldim.

— Qayerga otib yuboringiz... axir men uni... ekish uchun gultuvak...

— Bir oydan beri sarg'ayib yotdi-ku, qizim, ekmanding. Endi u ekaning bilan o'smasdi, — dedi onam qo'limdagi changalab ushlab turgan gultuvakka qarab.

— O'sardi! — deyman hamon kimdan alamimni olishni yo nimadan jahl qilishni bilmay. — Gullardi ham. G'unchalab turgandi-ku!

— Hamma ishning o'z omadi — o'z vaqti, bolam. Gul suvda emas, tuproqda o'sadi. Ke qo'y, boshqa gul olib beraman bozordan. Nima ko'p — gul ko'p.

— Bunaqasi bozorda yo'q, ona... — deyoldim faqat. Shu palla birdan dugonamga gul allaqachon gullab yashnab o'sayotganligi haqida maqtanib qo'yganim yodimga tushdi...

Bu voqeaga ancha bo'lgan. Bir marta o'sha dugonam bilan kulshib eslab ham qo'ydik. Ammo men uni hech unutolmayman. Ba'zi insonlarning taqdirleri, atrofimda bo'layotgan voqealar o'sha gulni yodimga solaveradi. Katta, chiroyli, bejirim guldonga to'ldirib, nozik poyasi botgunicha shirin suv to'ldirilganini, o'zidan ham kattaroq gullar ochganini, yashab qolish uchun uzoq kurashganini va... yana asl joyi bo'lgan tuproqqa yetolmay nobud bo'lganini ham eslayveraman. Eh-he, odamlar orasida qanchadan qancha shunday o'z joyiga vaqtida "ekilmagan gullar" bor. Men-ku o'sha gul uchun vijdonim oldida javob berib kelyapman, butun boshli odamlarni nobud qilayotganlar... Siz qanday yashayapsiz ekan?!

Mohira ESHPO'LATOVA,  
Olmazor tumanidagi  
233-maktab ona tili va adabiyot  
o'qituvchisi

## Yaxshilar

Asli dunyoyi azalkim, unda mehmon yaxshilar, Xulqi xushliq, so'zi hikmat, chin musulmon yaxshilar.

Kim umr qadriga yetgay, aylagay Haq sarbaland, Yaxshilik istab sog'insa, umri xandon yaxshilar.

Yaxshining yuksak maqomi, ezgulik a'molidir, Ro'yi oftob, suhbatlari soz, mehri ummon yaxshilar.

Anga begona arazlar, na adovat, na alam, Nim tabassum birla ro'zi sho'x-u shodon yaxshilar.

Yaxshilar vasfi na darkor, ismi jismidin ayon, Do'st atalgan olam uzra nomi doston yaxshilar.

Barchaga andoza asli yaxshilarning ibrati, Yaxshi birla ne go'zaldir sursa davron yaxshilar.

Pok ibodat, ham hidoyat birla taqvosin ko'ring, Haq suyib ardoqlaguvchi do'sti Rahmon yaxshilar.

Har sifotin vasfida yaxshini Mahbub istaram, Chunki umrim maxzanida yaxshi inson yaxshilar.

\*\*\*

Yaxshidan bog' qolib, bo'ston bo'lgaydir, Yaxshilar tillarda doston bo'lgaydir.

Samimiy insonlar quyoshga egiz, Qalbida oftobday iymon bo'lgaydir.

Umr manzilidan sinovlar toblab, Yetgani farog'at — davron bo'lgaydir.

Yaxshilar subhati hikmat aslida, Uqqaning poklikka mezon bo'lgaydir.

Baytlarim, bayozim yaxshilar uchun, Anglamas kimsaga armon bo'lgaydir.

Yaxshilar, men sizdan olaman saboq, Pandingiz hayotga imkon bo'lgaydir.

Xalq suysa, Haq suyar — yaxshilar asli, Unvoni HAZRATI INSON bo'lgaydir..

## Faxriya

Tillar ichra sarbaland-u osmon bo'lding, tilim, Ko'hna moziy ichra zohir ham nihon bo'lding, tilim.

Necha tahrir-u munaqqid o'qiddin tutmay hadik, Maxzani olamda ganji begumon bo'lding, tilim.

Qodiriy, Cho'lpon-u Fitrat tizdi so'zdin marvarid, Necha baddin sof-u begard har zamon bo'lding, tilim.

Bitdilar devoni dilbar forsigo'y ham hind ila, Har necha nazm ichra avlo doston bo'lding, tilim.

Bo'ylanib olamga O'ZBEK sarbaland minbar uzra, Qaddi mag'rur O'ZBEGIM lutfida shon bo'lding, tilim.

Nazm-u ash'or gulshani qumrilar roz aylamish, Andalib oshiqqa monand xushzabon bo'lding, tilim.

Rozi Mumtoz bayt uzra bayt evrilur ayyomi xush, Nazmu ash'or birla xurram — shodmon bo'lding, tilim!

Nargiz XUDOYBERGANOVA (Mumtoz MAHBUB),  
Farg'ona shahridagi  
40-IDUM o'qituvchisi



## Toshkent viloyati Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan Angren shahridagi davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati

### IQTIDORLI O'QUVCHILARNI O'QISHGA TAKLIF ETADI!

Maktab-internatga 2021-2022-o'quv yili uchun 7-sinfga xorijiy tillar (ingliz tili) va aniq fanlar (matematika) yo'nalishlariga o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinadi.

Tanlov DTM (Davlat test markazi) tomonidan amalga oshiriladi.

#### Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati(DIMI)da:

- Dars mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida hamda yuqori malakali pedagog kadrlar tomonidan olib boriladi.

- O'quv-tarbiya jarayoni 7-11-sinflar doirasida maxsus o'quv reja va dasturlar asosida tashkil etiladi.

- O'quvchilar yotoqxona va issiq ovqat bilan ta'minlanadi.

#### O'quvchilar tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- DIMI direktori nomiga ariza.
- 086-U shakldagi tibbiy ma'lumotnoma.
- 3x4 hajmdagi 6 ta fotosurat.
- Tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.

Manzil: Toshkent viloyati, Angren shahri, 48-daha, 1- "B" uy.

Murojaat uchun telefonlar:

(99) 817-24-91, (94) 925-41-89, (94) 366-25-12.

Hujjatlar onlayn tarzida ham qabul qilinadi.

**Dusmatova Gulbaxor Abdurashidovnaning 03.00.09 — Umumiy genetika ixtisosligi bo'yicha "G'o'zaning o'rta, uzun totali navlari duragaylarida morfo-xo'jalik belgilarining irsiylanishi, o'zgaruvchanligi, bog'liqligi qonuniyatlarini o'rganish" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz.

Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali.

Tel/faks: (71) 264-23-90, 264-23-90, e-mail: igebr@academy.uz

**Serebryakov Yuriy Vladimirovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Turli vazn toifasidagi bokschilarning musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichidagi mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi,

19-uy "B" binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali.

Tel: (0-370) 717-17 79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

**Reymov Mamanbek Polatovichning 11.00.07 — Geoinformatika ixtisosligi bo'yicha "Orolbo'yi muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar ekotizim va xizmatlarini geoinformatsion tahlil qilish va kartalashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 2-iyun kuni soat 16:00 dagi onlayn (masofaviy) yig'ilishida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

Tel/faks: (71) 237-22-09, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

**Yarashov Jaylonbek Adamboyevichning 05.09.06 — Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi va 01.02.04 — Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi (texnika fanlari) ixtisosliklari bo'yicha "Gruntning elastik-plastik xossalari va inshooting konstruktiv xususiyatlarini hisobga olgan holda gruntli to'g'onlarning mustahkamligini baholash. (Pskom suv ombori to'g'oni misolida)" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 2-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

Tel/faks: (71) 237-22-09, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

**Jurayev Sanjar Rashidovichning 05.09.06 — Gidrotexnika va melioratsiya qurilishi ixtisosligi bo'yicha "Meliorativ nasos stansiya suv qabul qilish inshootining yangi konstruksiyasini tadqiq qilish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-iyun kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) yig'ilishida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

Tel/faks: (71) 237-22-09, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

**Eshdavlatov Orif Zokirovichning 06.02.03 — Xususiy zootexniya; chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston sharoitida mahalliy populyatsiyadagi asalarilarning qishlov davrida chidamliligini oshirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Toshkent filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.06/09.07.2020. Qx.V.117.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111801, Zangiota tumani, O'rtaovul QFY, A. Temur ko'chasi,

Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Toshkent filiali.

Tel: (70) 9-75-83-11; e-mail: svmi.tfiyandex.ru, www.svmitf.uz

**Baxriddin Fayoziddin Baxriddinovichning 06.02.01 — Qishloq xo'jaligi hayvonlarini urchitish, ko'paytirish, seleksiyasi va genetikasi. Qorako'chilik ixtisosliklari bo'yicha "Shvits zotli sigirlarning mahsuldorlik xususiyatlarini turli seleksiyadagi nasldor buqalardan foydalanib takomillashtirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Toshkent filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.06/09.07.2020. Qx.V.117.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111801, Zangiota tumani, O'rtaovul QFY, A. Temur ko'chasi,

Samarqand veterinariya meditsinasi institutining Toshkent filiali.

Tel: (70) 9-75-83-11; e-mail: svmi.tfiyandex.ru, www.svmitf.uz

**Aqilov Ulug'bek Hakimovichning 06.02.04 — Ipakchilik ixtisosligi bo'yicha "Tut ipak qurtining toza sanoatbop duragaylarini yaratishda partenogenetik klonlardan foydalanishni asoslash" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.36/30.01.2020. Qx.103.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 2-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100055, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Ipakchi ko'chasi, 1-uy,

Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti.

Tel/faks: (71) 249-83-56, 249-82-13; e-mail: uzniish@mail.ru

**Batirova Aziza Nermuradovnaning 06.02.04 — Ipakchilik ixtisosligi bo'yicha "Tut ipak qurtining sanoat duragaylari texnologik xususiyatlariga ekologik omillarning ta'siri" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 1 00140, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Toshkent davlat agrar universiteti.

Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag\_info@edu.uz

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Matematika fakulteti "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika" kafedrasida professori, akademik Shokir Farmonovga akasi

**Meliqo'zi QOSIMOV**ning

vafot etganligi munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasi hamda Nurobod tumanidagi 15-maktab jamoasi faxriy pedagog, O'zbekiston Respublikasi Xalq o'qituvchisi

**Ibodulla BOYMURODOV**ning

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya bildiradi.

## TANLOVDA ISHTIROK ETING!

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasi quyidagi professor-o'qituvchilar lavozimlariga



## TANLOV E'LON QILADI:



### 1. Tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha:

dotsent (oliy matematika) – 1 o'rin;

### 2. Tillar kafedrasida bo'yicha:

professor (ingliz tili) – 2 o'rin;

professor (nemis tili) – 1 o'rin;

dotsent (ingliz tili) – 3 o'rin;

dotsent (rus tili) – 4 o'rin;

dotsent (fors tili) – 2 o'rin;

katta o'qituvchi (ingliz tili) – 4 o'rin;

katta o'qituvchi (fransuz tili) – 1 o'rin;

katta o'qituvchi (rus tili) – 3 o'rin;

katta o'qituvchi (nemis tili) – 1 o'rin;

o'qituvchi (ingliz tili) – 4 o'rin;

o'qituvchi (rus tili) – 2 o'rin;

o'qituvchi (nemis tili) – 1 o'rin;

### 3. Qo'shinlar va ularning kundalik faoliyatini boshqarish yo'nalishi bo'yicha:

dotsent (boshqaruv faoliyati asoslari va menejment) – 1 o'rin;

katta o'qituvchi (informatika va axborot texnologiyalari) – 2 o'rin;

### 4. Qo'shinlarning jangovar ta'minoti yo'nalishi bo'yicha:

dotsent (muhandislik tayyorgarligi) – 1 o'rin;

o'qituvchi (RKBM va kimyo) – 1 o'rin;

### 5. Jismoniy tayyorgarlik va sport yo'nalishi bo'yicha:

o'qituvchi – 3 o'rin;

### 6. Gumanitar fanlar yo'nalishi bo'yicha:

#### Gumanitar fanlar sikli

dotsent (falsafa) – 1 o'rin;

#### Pedagogika va psixologiya sikli

professor (psixologiya) – 2 o'rin;

dotsent (psixologiya) – 1 o'rin;

dotsent (pedagogika) – 1 o'rin;

o'qituvchi (pedagogika) – 1 o'rin;

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

Akademiya boshlig'i nomiga ariza;

kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa;

oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi (*nomzod kamida magistr darajasiga ega bo'lishi shart*).

Qatnashuvchilarda ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda, ular tegishli diplomlar, attestatlar nusxalarini va ilmiy ishlar ro'yxatini taqdim etishlari lozim.

Hujjatlar gazetada e'lon chop etilgan kundan boshlab **30 (o'ttiz) kun** muddat ichida qabul qilinadi.

**MANZIL:** Toshkent shahri, Parkent ko'chasi – 2. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi. Telefon: 289-97-84, 268-17-20, 289-97-27.



Toshkent viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda "2021-2022-yillarda Toshkent viloyatining Ohangaron tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4916-sonli Qaroriga asosan "Mikrokreditbank" ATB Toshkent viloyati mintaqaviy filiali tomonidan Angren shahrining "Nurobod" qo'rg'oni hududida 0,20 gektar yer maydonida yerto'lali, 5 qavatli binoning 1-2-qavati bank uchun, qolgan 3-4-5-qavatlarini turarjoy xonadonlaridan iborat bo'lgan bino qurilishi munosabati bilan ushbu binoning loyiha va smeta hujjatlarini tayyorlash bo'yicha

## TANLOV E'LON QILADI.

Tanlov bo'yicha takliflar 2021-yilning 28-may kuniqadar qabul qilinadi.

Murojaat uchun manzil:

100123, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Farhod ko'chasi, 3-uy.

Ma'lumot uchun telefonlar:

(71) 281-24-35, (95) 198-85-56;

faks: (71) 281-24-37



# Marifat

### TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

### Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4689. Tiraji 10256. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

### TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;  
kottibiyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

### MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy. Web-site: www.marifat.uz.

**Dizaynerlar:** Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
**Navbatchesi muharrir:** Zilola Madatova.  
**Navbatchesi:** Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etiladi. Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.